

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
JAHON TARIXI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

4-kurs “A” guruhi talabasi
USMONOV OTABEK

IKKINCNI JAHON URUSHI
DAVRI DIPLOMATIYASI

5120300 – “Tarix” (mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha) ta’lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: katta o‘qituvchi B. Abdullayev

Andijon – 2016 yil

R E J A

Kirish

I.bob. Urush o'choqlarining paydo bo'lishi va urushining boshlanishi

II.bob. Ikkinchi jahon urushi ko'laminin kengayishi

**III.bob. Gitlerga qarshi koalitsiya davlatlarning o'zaro
munosabatlari**

IV.bob. Fashizmga qarshi va milliy-ozodlik harakatlarining ko'tarilishi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi natijasida jamiyatimizning barcha sohalarida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Hususan, Vatanimiz va jahon tarihiga vatanparvarlik nuqtai nazaridan qiziqish ortmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarhini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi»¹ - deb ta'kidlab o'tadi. Sobiq sho'ro saltanati yillarida eng qadimgi davrdan to XX asr oxiriga qadar bo'lgan tariximiz sohtalashtirildi. Endilikda ,ya'ni istiqlol yillarida tarixshunosligimizda bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Vatanimiz va jahon tarixiga e'tibor borgan sari rivojlanib bormoqda.

Hozirda jahon mamlakatlari tarixinining har bir atributiga e'tibor qaratish, uni o'rganish, tahlil qilish, xatolarni qo'llamaslik, ijobiy jihatlarni vatanimiz taraqqiyotida qo'llash muhim hisoblanadi.

O'zlikni anglash - eng avvalo o'tmishni o'rganishda, tarixga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat o'zini angelayotgan, o'zini tushunayotgan xar bir inson o'z ajdodlari kim bo'lganligi, ota-bobolari nima bilan shug'ullanganligi va qanday hayot kechirganligini bilib olishga intiladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, „.....yaqin vaqtlargacha ijtimoiy fanlar aslida siyosat manfaatlariga hizmat qilar edi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar mavzusini belgilashga, bu tadqiqotlarning doirasi, harakteri va yo'nalishlariga, jamiyatshunos olimlarning dunyoqarashi va metodologiya yo'l-yo'riqlariga o'z tamg'asini bosdi.“²

Xalqaro munosabatlar xalqaro siyosat munosabatlarda o'ziga xos o'ringa ega. U ikki yoki undan ortiq mamlakatlar, turli xil siyosiy va nodavlat tashkilotlar bilan bo'lgan aloqalarni ifoda etadi. Uning faoliyati xalqning talab va ehtiyojlari, davlat manfaatlar, xalqaro normalar va qadriyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Xalqaro munosabatlar raqobat yoki o'zaro hamkorlik asosida qurilishi mumkin.

Xalqaro munosabatlarda jahon hamjamiyatidagi davlatlar o'rtasidagi siyosat olib borishda o'zaro manfaatlarini hisobga olish zarurligini anglab etish va uni hisobga olgan holda yondashish zarur. Bu xalqaro munosabatlarda siyosat tamoyilining ayrim davlatlar darajasidan chiqqanligini, umuminsoniy qadriyatlar xalqaro munosabatlarni belgilab beruvchi asosiy mezon bo'lib borayotganligini ko'rsatadi. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta.

Birinchidan: siyosat tarixi, uning o'ziga xos oqibatlari turli davlatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilot o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ularning manfaatlariga mos tushadigan tamoyillarga asoslanish zarurligini taqazo etadi.

Ikkinchidan: bugungi kungacha jahon sivilizatsiyasiga katta xavf solib turgan qurollar (yadro quroli, kimyoviy qurollar) to'planib qolganligini va uni sivilizatsiyasiga bo'lgan harakatining mavjudligini va uning oldini olish bilan bog'liq.

Uchinchidan: xalqaro munosabatlarda ayrim davlat rahbarlari, siyosiy prtiyalar va shaxslarning bir tomonlama qarashlarining hamon saqlanib qolayotganligi, yangi qurollarning sivilizatsiyaga bo'lgan intilishlari, davlatlarga nisbatan munosabatda “zo'ravonlik”, “kuchga harakatlari” va undan manfaatdor kuchlarning mavjudligi, xalqaro siyosatda o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lida, ixtiloflar paydo bo'lganda uni siyosiy yo'llar bilan hal etish ma'rifiy yo'l ekanligini tan olish zaruriyati bilan bog'liq.

Xalqaro munosabatlarda o'zaro ishlab chiqilgan normalarga amal qilish, yangi jahon urushini oldini olish va uning oqibatlarini hamma uchun bir xilda ekanligini, yer yuzida hayotni saqlab qolish,

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992. - Б.71.

²Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. - Т.: Ўзбекистон. 2011. - Б.88.

insoniyat taqdiri bilan bog'liqmuammo ekanligini xalqaro siyosatda hisobga olgan holda munosabatda bo'lish zarurligi davlatlar, siyosiy partiyalar, tashkilotlar o'rtasida xalqaro munosabatlar doirasida o'zaro kuchlar nisbatan muvofiqlashtirgan holda siyosat yurgizishni taqozo etadi.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni “ kuchga tayangan holda” hal etish insoniyat boshiga og'ir musibatlarni keltirib chiqarish aniq. Bunga insoniyat tarixida bo'lib o'tgan qonli urushlar misol bo'lib, buni har bir siyosatdon esdan chiqarmasligi zarur.

Tarix shundan guvohlik beradiki, yer yuzida keyingi 5,5 ming yilning atigi 292 yilgina tinch va osoyishta o'tgan. Bu urushlar birgina Yevropada XVII asrda 5 mlndan ko'proq, XIX asrda 6 mln, XX asrda 70 mingdan ko'proq kishining hayotiga zomin bo'lgan.

XXI asr boshlanishida jahon hamjamiyatida muhim o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Xalqaro munosabatlarning xarakteri va mazmunida katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Xalqaro munosabatlar tamoyillari qayta qurib chiqilishini yangicha idrok etilishini taqozo etmoqda. Jahon sivilizatsiyasining ertangi taqdiri, xalqaro munosabatlar muammosining hal etilishi, insonparvarlik muammosini yangicha tushunish va talqin etish uni anglash amalda tadbiq etish xalqaro siyosatning asosiy buguniga aylandi.

Hozirgi davrda dunyoning turli burchaklarida turli xil ixtiloflar mavjud. Tojikiston, Afg'oniston, Falastin va Isroil o'rtasidagi munosabatlarda, sobiq Yugoslaviyadagi voqealar va boshqa ayrim davlatlarda bo'layotgan o'zaro kelishmovchiliklar, ixtiloflarda ko'rish mumkin. Ularning ko'lami xilma – xil bo'lib, millatlararo, davlatlararo, mamlakatlarning o'z ichida sodir bo'lmoqda.

Insoniyatning yashab qolishini ta'minlash, barcha tinchlik sevar kuchlar oldida turgan asosiy vazifalari shuni chuqur xis etgan holda, keng jamoatchilik, siyosatdonlar, shaxslar vodorod bombasidan foydalanish, osmondagi urushning nima ekanligini aniq tasavvur etishi muhim. Bu u yoki bu shaharlarni shunchki bombardimon etish emas. Agar atombombasi Xirosimani vayron etgan bo'lsa, birgina vadarod bombasi esa undan katta bo'lgan shaharlarni vayron etadigan kuchga egadir. Bugun Xirosimada portlatilgan bombaga nisbatan 25000 marta kuchli bo'lgan bombani yaratish imkoniyati mavjudligini hisobga olsak, u insoniyat boshiga aql bovar eta olmaydigan darajada mudhish oqibatlarni solishi mumkin. Shuning uchun ham xalqaro munosabatlarda buni hisobga olish hamda o'zaro manfaatli munosabatlar olib borishi, kelishmovchiliklarni harbiy yo'llar bilan emas, tinch yo'llar bilan hal etish insoniyat oldidagi mas'uliyatli vazifalardan birdir.

Xalqaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda munosabatda bo'lish kelajakka ishonch demakdir. Bu yer yuzida tinchlikni saqlab qolish uchun xalqaro munosabatlari o'zaro ishonchga vat eng manfaatlar asosida qushilishiga olib keladi.

XX asr xalqaro munosabatlarda sodir bo'lgan muhim o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bugungi xalqaro munosabatlar nazariyasida “tashqi siyosat” tushunchasi bilan birga xalqaro siyosat tushunchasi ham keng ishlatila boshlandi.

Tashqi siyosat - bu davlatlarning mamlakat tashqarisida davlatlararo munosabatlarda o'zining milliy va umumbashariy maqsadlari, xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatdan iborat.

Xalqaro siyosat - bu xalqaro munosabatlarda ishtirok etadigan turli davlatlar, sub'ektlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning xalqaro meyorlar, normalar, qadriyatlar asosida o'zaro munosabatlarni saqlab turishga qaratilgan faoliyatdir.

Xalqaro siyosat alohida shaxslar yoki davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarnigina emas, balki muayyan guruh yoki davlat manfaatlarining amalga oshirishi bo'yicha aloqalarni, faoliyatlari sohalarini ham o'z ichiga oladi. Xalqaro munosabatlar xalqaro siyosat, iqtisodiy – ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi va davlatning ichki va tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi.

Har bir davlatning rivojlanishi tashqi omillar bilan bog'liq bo'lib, bu bog'liqlikning ta'siri toboro oshib bormoqda. Bu o'z navbatida, bugungi umumbashariy muammolar bilan bog'liq.

Chunonchi, tinchlik uchun kurash, urush xavfini oldini olish, ekologiya, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolar jahon jamoatchiligining dunyo oldidagi mas'uliyatini oshirmoqda. Bu muammolar har bir davlatning ichki siyosati bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham ularni bir-birini tushungan holda siyosat olib borishga undamoqda va bunday siyosat tarafdorlari ko'paymoqda.

Xalqaro siyosatda qo'llangan xalqaro normalar, tamoyillarga amal qilish, o'zaro munosabatlarda "bir tomonlama" manfaatdorlikni nazarda tutgan holda siyosat olib borish yoki munosabatda bo'lishi faqat davlatlarning rivojiga salbiy ta'sir etib qolmasdan, umuman dunyoda siyosiy barqarorlikni buzulishiga sabab bo'ladi.

Xalqaro siyosatda bulayotgan o'zgarishlarni atroflicha o'rganish, siyosiy jarayonlarga va uning rivoji yo'nalishlariga xolisona yondoshish va baho berishni taqazo etadi.

Ma'lumki xalqaro siyosatda davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda amal qiladigan qonuniyatlar va tamoyillar davr o'zgarishi bilan o'zgarib turadi. Masalan xalqaro siyosatda XX asrning o'rtalaridan 80-yillargacha "kuchga tayanish" asosida munosabatlar bilan ichki siyosatda "harbiy kuch-qudrati" mustaxkamlash bilan bog'liq faoliyatlar ko'zga tashlanadi. Xalqaro munosabatlarda davlatlarga nisbatan "dushmanlik" yoki ishonchsizlik bilan yondoshish ular o'rtasidagi munosabatlarning asosiga kuchdi. XX asrning oxirida dunyo siyosiy xaritasida o'zgarishlar sodir bo'ldi, jahon hamjamiyati shakllandi.

Ikkinchi jahon urushi 6 yil davom etdi. Bu urush dunyoning 61 davlatini o'z domiga tortdi. Ularda dunyo aholisining 80 foizi yashar edi. Jangovar harakatlar 40 mamlakat hududida bo'lib o'tdi. Armiya saflariga jami 110 mln kishi safarbar etildi. Urush yillari 55 mln kishi halok bo'ldi, 12 mln dan ortiq odam o'lim lagerlarida o'ldirildi, 95 mln kishi nogiron bo'lib qoldi. Ikkinchi jahon urushi tarixda eng dahshatli, eng ko'p talafot va katta vayrongarchilik keltirgan urush sifatida iz qoldirdi. Chunonchi, maxsus adabiyotlarda qayd etilishicha, bu urushda 65-67 mln kishi halok bo'lgan. Ularning yarmi tinch aholi edi. Vayrongarchilikdan ko'rilgan zarar va urush xarajati birgalikda 4 trillion dollarni tashkil etdi. Bu urush ayni paytda eng dahshatli qurollar ishlatilgan urush ham edi. Urush oxirida hatto raketa quroli hamda atom bombasi yaratildi va ular insoniyatga qarshi ishlatildi. Fashizmning dunyoga hukmron bo'lishga intilishi va insoniyat boshiga keltirishi mumkin bo'lgan kulfati antifashistik kuchlarni birlashtirdi. Erksevar xalqlar birgalikda fashizmga qarshi kurashdilar. Va, nihoyat, g'alaba ham qozondilar. Biroq bu g'alabaga osonlikcha erishilmadi. Ikkinchi jahon urushini keltirib chiqargan asosiy davlatlar asosan birinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchragan Germaniya, Yaponiya, Italiya kabi alamzada davlatlari bo'ldi. Bu davlatlar iqtisodiy jihatdan birinchi jahon urushidan so'ng shiddat bilan rivojlanib, dunyoni qayta taqsimlash tashabbusi bilan chiqdilar. Bu esa o'z navbatida Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya kabi davlatlar manfaatiga daxl qilishi aniq edi. Bu esa amalda bu buyuk davlatlarga e'lon qilingan ochiqdan-ochiq urush ham edi. Shu tariqa ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi.

"Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g'oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo'lmasin, - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov, - o'z Vatani, el-yurtining yorug' kelajagi, beg'ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo'lganlarni, o'z umrlarini bevaqt hazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz".¹

Biz "Ikkinchi jahon urushi davri xalqaro munosabatlar" mavzusini tadqiq qilish orqali jahon urushi davrida dunyodagi xalqaro vaziyat qay tarzda o'zgardi, o'zaro kuchlar nisbati nima sababdan o'zgardi, nima sababdan jahon urushi kelib chiqdi, urushning boshlanishiga asosan qaysi davlatlar va shaxslar sababchi bo'lganligini dalil-isbotlar orqali bayon qilib, mavzuning dolzarbligini ochib berish mumkin.

¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. - Т.: Ўзбекистон, 1996. - Б.81.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Biz o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib olgan mavzu, ya'ni "Ikkinchi jahon urushi davri xalqaro munosabatlar" mavzusiga ko'plab tarixchilar, siyosatchilar tomonidan murojaat qilinganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Masalan, tarixchi-olimlarning aynan shu davr tarixi bilan shug'ullanganligini men internet tarmog'idagi mavzuga doir saytlardan bilib oldim va bitiruv malakaviy ishimni tayyorlashdan o'sha saytlardan keng foydalanishga harakat qildim.

Ishning maqsad va vazifalari. Har bir inson biron bir ishga kirishsa, inson o'sha olib boryotgan ishiga nisbatan o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'yib oladi. Jumladan, meni xalqaro munosabatlar tarixiga qiziqishim tufayli ikkinchi jahon urushi davri tarixini va o'sha davrdagi davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy soxadagi olib borgan ishlarini imkon qadar o'rganishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

Ishning davrlashtirilishi. Bitiruv malakaviy ishining xronologik davri 1939-yildan 1945-yilgacha bo'lgan voqealardan iboratdir. Bunga sabab aynan 1939-yildan Germaniya, Italiya va Yaponiya kabi davlatlar siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy jihatdan yuksak darajada rivojlanib, dunyoni qayta taqsimlanishini urush yo'li bilan amalga oshirishga ahd qildilar. Natijada ikkinchi jahon urush kelib chiqdi. Bu dahshatli urush 1945-yilga qadar davom etdi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqotning nazariy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari tashkil qiladi. Mazkur tadqiqot ishi 1939-yildan 1945-yilgacha bo'lgan davmi o'z ichiga olganligi sababli asosiy e'tibor o'sha davrga oid hamda keyingi yillarda nashrdan chiqqan adabiyotlar, maqolalar, ilmiy ishlar va shu kabilarga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Biz o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib olgan mavzu, ya'ni "Ikkinchi jahon urushi davri xalqaro munosabatlar" mavzuiga ko'plab tarixchilar tomonidan juda ko'plab murojaat qilinganligi ma'lum. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizni tayyorlash jarayonida, biz ko'proq manbalarga, xrestomatik asarlarga va Internet saytlaridan olingan ma'lumotlarga tayangan xolda voqea-xodisalarni qiyosiy tahlil asosida yoritishga harakat qildik.

Ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundaki, jahon tarixidagi bu qisqa davr tarixi, undagi ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, turli xil nazariyalarning vujudga kelishini, ularning sabab va mohiyatini chuqur va har tomonlama o'rganish orqali tarix yangi-yangi ma'lumotlar olib keladi. Bitiruv malakaviy ishining natijasiga ko'ra, bayon etilgan faktik materiallar va ilmiy xulosalardan Tarix fakulteti "Tarix" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'tiladigan „Xalqaro munosabatlar tarixi“, „Jahon tarixi (Eng yangi tarix)“ fanlaridan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida, talabalarning mustaqil va kurs ishlarini tayyorlashlarida, to'g'arak ishlarini olib borishda manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi tashkiliy tuzilish jihatidan kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalardan iborat. Bitiruv malakaviy ishining umumiy xajmi elektron variantda ilovalardan tashqari 68 betni tashkil qiladi.

1. URUSH O'CHOQLARINING PAYDO BO'LISHI VA URUSHINING BOSHLANISHI

Germaniyada davlat tepasiga fashistlarning kelishi bilan Yevropadagi siyosiy vaziyat keskin o'zgardi. Gitler va boshqa gitlerchi rahbarlarning „marksizmni bu yerda va butun dunyoda quritish“ to'g'risidagi da'volari uning obro'sini Yevropa jamoatchiligi oldida behad oshirdi va unga G'arb taraqqiyoti uchun kurashchi tojini kiydirdi. G'arb davlatlari fashistlarni SSSR bilan harbiy qarshilikka kirishishga undadilar. Biroq, Gitler oldin Reyn viloyatini, so'ngra Avstriya, Sudet va, nihoyat, Chexoslovakiyani bosib oldi.

Shu taxlit Yevropada birinchi urush o'chog'i alangalandi. Gitler katta urush boshlash yo'liga tushdi.

Ikkinchi urush o'chog'i Uzoq Sharqda yuzaga keldi. Yaponiya hukumat doiralarida yapon militarizmi agressiyasini shimolga, sovet Primoryesi, Sibir, Xitoy va Mongoliya tomonga rivojlantirish tarafdori bo'lgan kuchlarning qo'li baland keldi. 1931-yili Manjuriyani bosib oldi. 1938-yil yozida yapon harbiylari SSSRga qarshi jiddiy avantyura uyushtirdilar. Yapon qo'shini qismlari sovet chegarasini Hasan ko'li yaqinida buzib o'tdi, biroq ayovsiz janglar natijasida ular Manjuriya hududiga chekinishga majbur bo'ldilar.

Sovet diplomatiyasi 1933-yili Yevropada kollektiv xavfsizlikni qaror topdirish kampaniyasini boshladi. Uning mohiyati har bir qatnashchi umumiy xavfsizlik uchun teng javobgar bo'lgan o'zaro yordam to'g'risidagi mintaqaviy bitimlarni tuzishdan iborat edi. Bu g'oyaning amalga oshirilishi kollektiv harakatlar bilan urushning oldini olish imkonini berardi. Sovet hukumatining diplomatik tashabbusi ma'lum darajada muvaffaqiyat qozondi. 1935-yil 2-mayda Parijda SSSR va Fransiya o'rtasida o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim imzolandi. Ikki hafta o'tib xuddi shunday bitim Sovet Ittifoqi va Chexoslovakiya o'rtasida tuzildi, biroq u SSSRning Chexoslovakiyaga faqat Fransiya Chexoslovakiyaga nisbatan o'z majburiyatini bajargan taqdirda- gina yordam berishini ko'zda tutardi.

Sovet Ittifoqi Italiyaning Efiopiyaga qarshi agressiyasini keskin qoraladi, ispan xalqini Franko tuzumiga qarshi kurashda qo'llab-quvvatladi, Ispaniyaning respublikachi hukumatiga oziq-ovqat, dori-darmon, kiyim-kechak va qurol-yarog' yuborib turdi. Ko'ngillilar – uchuvchi, tankchi, artilleriyachi va dengizchilar - fashizmga qarshi bosh ko'tarib, u bilan ochiq jangda olishayotgan ispan xalqiga yordamga oshiqdilar.

Fashist davlatlarining birlashgan kuchlari Ispaniya respublikasini yengdi va yo'q qilib tashladi. G'arb davlatlari fashistlar to'ntarishini qo'llab-quvvatlab, Italiya va Germaniyaning Ispaniyadagi fuqarolar urushida faol ishtirok etishlariga aralashmadilar.

Sovet hukumati Chexoslovakiya respublikasining o'z hududiy yaxlitligini saqlab qolish uchun kurashini ochiq- oydin qo'llab-quvvatladi. U hatto Fransiya o'z majburiyatini bajarishdan bosh tortgan taqdirda ham gitlerchilar tajovuziga qarshi amaliy yordam ko'rsatishga tayyor ekanini ma'lum qildi. So'z ish bilan mustahkamlandi. Sovet armiyasining yirik kuchlari (shu jumladan, 30 ta o'qchi diviziya, tanklar va aviatsiya) g'arbiy chegaralar tomon siljitildi.

1937-yili Yaponiya butun Xitoyni bosib olish maqsadida urush boshladi. Yapon militaristlari Manjuriyada Uzoq Sharqqa bostirib kirishga faol tayyorgarlik ko'rgan Kvantun armiyasini to'pladi. So'nggi Xitoy imperatori Pu I Manjou-Go hokimi qilib tayinlanib, yapon militaristlari qo'lida qo'g'irchoqqa aylandi. Bu davlatni faqat Germaniya, Italiya va Yaponiya tan oldi.

Yaponiyaning hukmron doiralarida urush partiyasi, ya'ni agressiyani kengaytirish tarafdori bo'lgan partiya kuchli mavqega ega bo'lib, u urushni boshladi. Ular Tinch okeanidan AQSHni siqib chiqarib, hukmronlik o'rnatish va Hindixitoydagi Buyuk Britaniya va Fransiya koloniyalarini yo'q qilib, Buyuk Yaponiya davlatini barpo etish niyatida edilar. Birinchi navbatda Yaponiya Xitoyni o'z koloniyasiga aylantirib, G'arb davlatlari mustamlaka tuzumlarining bu yerdagi qoldiqlarini yo'q qilishga urindi. Yapon militaristlari o'z tajovuzkor rejalarining mafkuraviy jihatini namoyishkorona uqtirib, G'arb davlatlarini ularning asosiy maqsadi Sovet Ittifoqi ekani va gap fashist davlatlari bilan hamkorlikdagi harakatlari haqida ketayotganiga ishonitirish- ga urindilar. Sovetlarga qarshi marralarda turgan G'arb davlatlari bu safsataga oson uchdilar. Yapon militaristlarining asl maqsadlari oydinlashganida kech bo'lgan edi. Yapon qo'shinlari Fransiya, Angliya va AQShning tayanch harbiy-dengiz bazalarini yakson qilib tashladi.

Mamlakat qurolli kuchlari zaif ekanini yaxshi tushungan Sovet Ittifoqi rahbariyati urushdan qochishga urindi. 1939-yil aprelida, Gitler Chexoslovakiyani bosib oldi. Shundan so'ng, Angliya va

Fransiya hukumatlari fashizm agressiyasiga qarshi kollektiv xavfsizlik choralarini muhokama qilish taklifini kiritdi. Sovet Ittifoqi rahbariyati rozilik bildirdi, holbuki, bu G'arb davlatlarining Germaniya Polsha yoki G'arb davlatlariga qarshi agressiya boshlagan taqdirda SSSRga bir tomonlama majburiyatlarini yuklashga bo'lgan navbatdagi urinish ekani aniq ko'rinib turardi.

Sovet Ittifoqi, Angliya va Fransiya hukumati o'rtasidagi muzokaralar Moskvada 1939-yilning aprelidan avgustiga qadar davom etdi. Sovet rahbariyati Fransiya ham, Angliya ham kollektiv xavfsizlik tizimini tashkil qilish istagi va biror aniq dasturiga ega emasligiga qat'iy ishonch hosil qildi. Muzokarlarda hech qanday istiqbol ko'zga tashlanmadi. G'arb davlatlari Germaniya va Sovet Ittifoqini osongina urushtirib qo'yishi mumkin bo'lgan shartlarni ilgari surdilar. Moskvadagi muzokaralar Germaniyani shoshilinch ravishda qat'iy harakatlarni boshlashga undashi lozim edi.

Angliya va Fransiya ikki yoqlama o'yin qilayotgani va bitimga kelishish niyatida emasligi aniq bo'lganidan so'ng sovet hukumati fashistlar Germaniyasi taklifini qabul qildi. 1939-yil 23-avgustda Moskvada Germaniya va Sovet Ittifoqi o'rtasida hujum qilmaslik to'g'risidagi bitim imzolandi.

Bitimga muvofiq ikkala tomon bir-biriga qarshi hujum qilmaslik va agressiya uyushtirmaslik majburiyatini olardi; uchinchi davlat kelishuvchi tomonlardan biriga hujum qilgan taqdirda boshqa tomon hujum qilgan tomonni qo'llab-quvvatlamasligi lozim edi. Tomonlar davlatlarning kelishayotgan tomonlardan biriga qarshi ittifoqlariga qo'shilmaslik, o'rtalaridagi barcha bahslarni tinch yo'l bilan hal qilish majburiyatini oldilar.

Sovet Ittifoqi bitimni imzolab SSSR va Germaniyaning Sovetlar uchun foydali bo'lmagan shartlarda to'qnashishiga umid qilgan doiralarning rejalarini barbod qildi. Bitim Yevropa davlatlarining SSSRga qarshi yagona fronti tashkil etilishining oldini oldi. Yapon militaristlarining Xolxin-Golda tor-mor keltirilishi bilan bir qatorda, sovet-german bitimi Uzoq Sharqda butunlay yangi vaziyatning qaror topishiga olib keldi. Fashistlar Germaniyasining butun tajovuzkor qudrati endi G'arb davlatlariga qarshi qaratildi. Shunday qilib, kechagi murosasiz g'oyaviy dushmanlar maslakdosh va ittifoqchilarga, tinchlikparvar maslakdoshlar esa potensial dushmanlarga aylandilar.

Bitimning e'lon qilinmagan maxfiy bandlari Polshaning ikki davlat o'rtasida bo'lib olinishini ko'zda tutardi, Sovet Ittifoqiga Boltiqbo'yi mamlakatlari - Litva, Latviya, Estoniyani hamda Bessarabiyaning qo'shib olishga ruxsat berardi. Bu hududlar oldin Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan bo'lib, Brest-Litovsk bitimiga ko'ra, undan zo'rlik bilan ajratib olingan edi. Ular Sovet davlatining strategik xavfsizligi nuqtai nazaridan juda katta ahamiyatga ega edi, chunki g'arbiy chegaralarni 400-500 km. ga nari siljitardi. Ular sovet-german urushida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Gitlerchilar bu hududlarni bosib o'tish uchun 2-3 oy vaqt sarflashga majbur bo'ldilar, bu vaqt ichida Sovet armiyasi Sibirdagi rezervlarini G'arbga tashlab ulgurdi.

Siyosiy va harbiy omillar g'oyaviy tamoyillardan ustun keldi. G'arb davlatlari Sovet Ittifoqiga istiqbolsiz tavakkal qilishni taklif etishgan edi, Gitler esa Stalinga tavakkalsiz manfaatdorlikni taklif qildi. Sovet-german bitimi eng avvalo Polshaning taqdirini belgilab berdi. U Sovet Ittifoqiga yordam berish yoki u bilan qo'shnihilik munosabatlarini o'rnatishdan Polshaning halok bo'lishini afzal bilgan o'z rahbarlarining sovetlarga qarshi kayfiyatlari qurboni bo'ldi. Angliya va Fransiya Polshaga xavfsizlikni kafolatlashgan edi. Polsha rahbarlari shuning o'zini yetarli deb hisoblashdi va yuzaga kelayotgan real vaziyatdan ko'z yumishdi. Polsha uzra halokat soya tashlaganida ham ular Germaniya reyxskanselyariyasi ostonasiga bosh urib, Gitler muruvvatini qozonishga urindilar. Shu tariqa Gitler qulay vaziyatdan foydalanib qoldi.

1939-yil 1-sentabrda Gitler qo'shinlari Polsha hududiga bostirib kirdi. Angliya va Fransiya agressiyani to'xtatishni talab qilib, Germaniyaga ultimatum e'lon qildi. Gitler bu e'tirozni e'tiborsiz qoldirdi. Angliya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qildi. Ikkinchi jahon urushi boshlandi. Fransiya va Angliya Polsha uchun urushmasligi uning boshidayoq ma'lum bo'ldi.

Germaniyaning Polshaga hujumi shiddat bilan rivojlandi. Urushni olib borishning yangi shakli – blitskrig (shiddatli urush) tanklarning aviatsiya ko'magida yoppasiga zarba berishidan iborat bo'lib, u dushman mudofaasini supurib tashlardi. Polsha kavaleriya jihatidan ustun, biroq tanklar va aviatsiya jihatidan ancha zaif edi. Polsha mudofaasi tezda barbod bo'ldi. 17 kun ichida Polsha armiyasidan asar ham qolmadi. 1939-yil 17-sentabrda prezident Ridz Smigli boshchiligidagi Polsha rahbariyati o'z xalqini dushman istibdodiga tashlab, mamlakatdan qochdi.

1939-yil 17-sentabrda sovet qo'shinlari 1939-yil 23-avgust bitimining maxfiy bandlariga muvofiq, Polsha hududiga bostirib kirib, G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiya Nareva, Visla va Sana daryolarigacha bo'lgan hududlarini ishg'ol qildi. Polsha davlati endi yo'q edi va sovet qo'shinlari uning taqdirida hech qanday o'rin tuta olmasdi.

1939-yil sentabrda Sovet Ittifoqi hamda Boltiqbo'yi davlatlari – Litva, Latviya va Estoniya o'rtasida o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitimlar imzolandi. Ularga ko'ra, Sovet Ittifoqi Estoniya va Latviya hududlarida o'zi uchun harbiy-dengiz bazalari va aerodromlar qurish, Litva hududida esa ma'lum joylarda qurolli yer va havo kuchlarini saqlash huquqini qo'lga kiritdi. Litva bilan bitimga ko'ra Sovet Ittifoqi Litva respublikasiga uning 1920-yilda Polsha qo'shinlari tomonidan bosib olingan qadimiy poytaxti Vilnyusni va Vilnyus viloyatini topshirdi. 1940-yilda uchala respublika ham bir vaqtda Sovet Ittifoqi tarkibiga qo'shildi. Xuddi shu davrda sovet hukumatining talabi bilan Bessarabiya ham SSSR tarkibiga kiritilib, Moldaviya ASSR (keyinchalik Moldaviya SSR) maqomini oldi.

1939-yil 26-noyabrda SSSR Maynil qishlog'i yaqinidagi mojar o Finlyandiya bilan chegaradagi sovet qo'shinlari marralarining o'qqa tutilishi munosabati bilan Finlyandiya hukumatiga nota e'lon qildi. SSSR hukumati chegaralarni Leningrad yaqinidan siljitish maqsadida hududlarni ayirboshlashni taklif qildi. Rad javobi olinganidan so'ng 30-noyabrda harbiy harakatlar boshlandi. 2-3 haftaga mo'ljallangan urush 105 kunga cho'zildi. 1940-yil 12-martda sulh bitimi imzolaniib, unga ko'ra SSSR chegaralari Leningraddan 150 km nari surildi, Xanko yarim orolidagi harbiy-dengiz bazasi SSSRga 30 yil muddatga berildi.

Sovet Ittifoqi ham, Germaniya ham 1939- yil u bitimdan imkon qadar foyda olishga urindilar. Bitimdan oldin sovet-german kredit shartnomasi tuzilgan edi. Unga ko'ra SSSR imtiyozli shartlarda 200 mln. marka kredit olib, eng zamonaviy uskunalarni Germaniya korxonalarida ishlab chiqarish uchun buyurtma berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunga javoban Germaniya 180 mln. markaga xom ashyo olish, Uzoq Sharqqa 50% li chegirma bilan tranzit qilish huquqini qo'lga kiritdi. 1940-yil fevralida 1942-yil 1-avgustgacha bo'lgan muddatga 700 mln. markaga Xo'jalik shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga ko'ra Germaniya Sovet Ittifoqiga sanoat ashyolari, uskuna va qurol-aslaha yetkazib berdi. Xususan, Germaniya tomoni „Xeynkel-100“, „Messerschmidt-109 va 110“, „Yunker-88“, „Fokke-Vulf 58“ rusumli eng zamonaviy samol- yotlarni taqdim etdi. Samolyotlarning hammasi qurol-aslaha bilan to'liq jihozlangan edi. Gitler eng yangi qurol-aslaha namunalari berishga cho'chimadi, chunki sovet mutaxassislari ularni ishlab chiqarish sirlarini egallay bilmasliklariga uning ishonchi komil edi. Biroq, fashistlar dohiysi adashdi. 1940-yil may-oktabrida SSSRda Germaniyaning harbiy texnikasi puxta o'rganildi va 1941-yil o'rtalaridayoq sovet korxonalari nemis harbiy texnikasidan bir necha baravar kuchli qurol-aslahalarni ishlab chiqara boshladi. 1941-yil boshida kengaytirilgan Xo'jalik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra SSSRga sanoat uskunalarining oqimi kela boshladi. Aynan shu davrda SSSRda harbiy-texnika sanoati bazasi yaratildi. Eng zamonaviy harbiy texnika ishlab chiqarila boshlandi. Vaqtdagi bu yutuq urushda juda katta ahamiyat kasb etdi. Basharti 1941-yilda Sovet Ittifoqi ulkan hududi, harbiy kuchlarini yo'qotgan bo'lsa, 1939-yilda urush uni halokatga olib kelgan bo'lardi.

Biroq, Stalin ham xatoga yo'l qo'ydi. U Gitler bilan munosabatlarga „do'stlik" maqomini berishga urinib, u bilan keyincha ham murosa qilishni ko'zladi. 1939-yil 28-sentabrda Moskvada do'stlik haqidagi sovet-german bitimi imzolandi. Germaniya tashqi ishlar vaziri I. Ribbentrop nomiga yo'llangan telegrammada Stalin shunday deb yozdi: „Germaniya va Sovet Ittifoqi xalqlarining qon bilan mustahkamlangan do'stligi uzoq va mustahkam bo'lishi uchun barcha asoslar mavjud". Bu „do'stlik" qachon, qayerda o'rnatilgani va qanday „qon" bilan mustahkamlangani noma'lum edi. O'n minglab nemis vatanparvarlari Germaniyadagi qamoq va konslagerlarda azob chekishardi, o'lim lagerlarida yahudiylar halok bo'lmoqda edilar, irqchilik va shovinizm gullab-yashnar, nemis fashistlari dunyoga egalik qilish niyatlarini ochiq bildirardilar.

Gitler SSSR bilan tuzilgan bitimlarga oz ahamiyat berdi. 1940-yil dekabrdayoq u „Barbarossa rejasi" nomli SSSRga hujum qilish rejasini ishlab chiqish to'g'risida ko'rsatma berdi. Uning asosiy maqsadi sovet davlatini to'liq yo'q qilish va bu yerdagi xalqlarni qulga aylantirishdan iborat edi. SSSR bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatishga bo'lgan urinishlari niqobdan boshqa narsa emasdi. G'arbdagi urushdan natija chiqmasligiga ishongani sari, Gitlarning e'tiborini Sovet Ittifoqi o'ziga tortib borardi. Gitler SSSRga qarshi urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi.

1939-yil 23-avgustdagi Germaniya va Sovet Ittifoqi o'rtasida hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimdan namuna:

1-modda

Ikkala Kelishayotgan Tomonlar ham alohida, ham boshqa davlatlar bilan hamkorlikda bir-birlariga nisbatan hech qanday zo'ravonlik, agressiya harakatlari va hujum uyushtirmaslik majburiyatini oladilar.

2-modda

Kelishayotgan Tomonlardan biri uchinchi davlatning harbiy harakatlari obyektiga aylangan taqdirda, boshqa kelishayotgan Tomon bu davlatni hech qanday shaklda qo'llab-quvvatlamaydi.

3-modda

Ikkala Kelishayotgan Tomonlarning hukumatlari kelajakda bir-birlarini ularning umumiy manfaatlariga daxl etuvchi ma'lu- motlardan xabardor etish uchun aloqa qiladilar.

4-modda

Kelishayotgan Tomonlarning hech biri boshqa tomonga bevosita yoki bilvosita qarshi qaratilgan ittifoqlarda ishtirok etmaydi...

7-modda

...Ushbu Bitim imkon qadar qisqa muddatda tasdiqlanishi lozim...Bitim imzolanganidan so'ng darhol kuchga kiradi...

SSSR Hukumati vakolatiga muvofiq V, Molotov.

Germaniya Hukumati nomidan Ribbentrop.

Qo'shimcha maxfiy ahdnomadan namuna:

Germaniya va SSSR o'rtasida hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimni imzolash chog'ida quyida imzo chekuvchi ikki tomon vakillari o'ta maxfiy tartibda Sharqiy Yevropadagi o'zaro ta'sir doiralarini chegaralash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqdilar. Bu muhokama quyidagi natijalarga olib keldi:

1. Boltiqbo'yi davlatlari (Finlyandiya, Estoniya, Latviya, Litva) tarkibiga kiruvchi viloyatlar hududiy-siyosiy jihatdan qayta tuzilgan taqdirda, Litvaning shimoliy chegarasi bir vaqtning o'zida Germaniya va SSSR manfaatlari doiralarining chegarasi hisoblanadi. Bunda Litvaning Vilen viloyatiga doir manfaatlarini ikkala tomon ham tan oladi.

2. Polsha davlati tarkibiga kiruvchi viloyatlar hududiy-siyosiy jihatdan qayta tuzilgan taqdirda, Germaniya va SSSR manfaatlari doiralarining chegarasi taxminan Nareva, Visla va Sana daryolari chizig'i bo'ylab o'tadi.

Mustaqil Polsha davlatini saqlab qolishdan o'zaro manfaatdorlik hamda bu davlatning chegaralarini belgilash masalalari faqat siyosiy rivojlanish jarayonidagina hal qilinishi mumkin. Nima bo'lganda ham ikkala hukumat bu masalani o'zaro do'stona kelishuv asosida hal qiladi.

3. Yevropa janubi-sharqida SSSRning Bessarabiyaga qiziqishi' tan olinadi. Germaniya tomoni bu viloyatlarga nisbatan o'zining hech qanday qiziqishi yo'qligini ma'lum qiladi.

4. Ushbu Ahdnomani ikkala tomon ham qat'iy sir saqlaydi.

SSSR Hukumati vakolatiga muvofiq V. Molotov Moskva, 1939-yil 23-avgust Germaniya Hukumati nomidan Ribbentrop

1939-yil 23-avgustdagi „Qo'shimcha maxfiy ahdnoma“ga izoh

1939-yil 23-avgustdagi „Qo'shimcha maxfiy ahdnoma“ning 2-bandi birinchi abzatsiga aniqlik kiritish maqsadida izoh beramizki, uni quyidagi yakuniy tahrirda o'qish lozim:

2 „Polsha davlati tarkibiga kiruvchi viloyatlar hududiy-siyosiy jihatdan qayta tuzilgan taqdirda, Germaniya va SSSRning manfaatlari doiralarning chegarasi taxminan Nissa, Nareva, Visla va Sana daryolari chizig'i bo'ylab o'tadi“.

Moskva, 1939-yil 28-avgust

SSSR Hukumati vakolatiga muvofiq V. Molotov.

Germaniya Hukumati nomidan Ribbentrop.

Bunday kelishuvni baholash tarixchilar orasida ko'plab baxs va diskussiyalarga sabab bo'ldi.

1939 – yilning yozida Germaniya urushga tayyorgarlik ko'rishni tugatdi. Myunxen tajribasi va chexoslovakiya bosqiniga asoslanib Gitler polsha ittifoqchilari Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan Germaniyaga qarshi urush e'lon qilinmasligi yoki har qanday holatda ham ular Polshaga yordam bermaydi deb hisoblardi.

1939 – yilning 1- sentabrda Germaniya Polshaga bostirib kirdi, 1939 – yil 3 – sentabrda Buyuk Briytaniya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. Ikkinchi jahon urushi boshlandi.

2. IKKINCHI JAHON URUSHI KO'LAMINING KENGAYISHI

Germaniya armiyasi 20 kun ichida Polshani tor-mor keltirdi. G'arb davlatlarining har qancha ishontirishlariga qaramay, shartnomalar bajarilmadi. 20 yil davomida Polsha G'arb davlatlarining sovetlarga qarshi siyosatida yetakchi o'rin egallab kelgan edi. Endi esa hatto Angliyaning Germaniyagadek qudratli davlatga 1939-yil 1-sentabrda urush e'lon qilishi ham ta'ziya izhoridan boshqa narsa emasdi.

G'arbiy frontda osoyishtalik hukm surardi. Fransuzlar Majino chizig'i ortida payt poylashdi, Angliya esa shoshilinch ravishda qayta qurollanib, an'anaviy dengiz qamalini tashkil qildi. Bu holatni tarixchilar g'alati urush yoki „zitskrig“ („o'tirib umshish“) deb nomlashdi. G'arb davlatlarining rahbarlari Gitlerni „tinchitish“ uchun Polsha unchalik qimmat to'lov emas deb hisoblashdi va hammasi yaxshi tugashiga umid qilishdi. Biroq, Gitlerni endi to'xtatishning iloji yo'q edi. Germaniyada ulkan armiya va harbiy sanoat yuzaga kelgan bo'lib, u bor kuchi bilan harakat qilishi va ishlashi lozim, bu esa faqat urush sharoitidagina mumkin edi.

Gitler qat'iy va shiddatli harakat qildi. U G'arbda asta- sekin qurolli kuchlarni to'plab, 1940-yil bahorida Belgiya va Fransiya chegaralarida 135 dan ortiq diviziyani jamladi, tirik kuch, texnika va aviatsiyada juda katta ustunlikni qo'lga kiritdi. Biroq, Germaniya qo'mondonligi oldin Skandinaviyada harbiy-dengiz va havo bazalarini barpo etishga qaror qildi, chunki ulardan turib Angliya flotining faol harakatlariga qarshilik ko'rsatish mumkin edi.

1940-yil 9-aprelda „Vezeryubung” operatsiyasi boshlanib, uning natijasida atigi ikki kun ichida nemis qo'shinlari Norvegiya va Daniyani bosib oldi. Tronxeym va Narvikda harbiy bazalar barpo etilib, ularda Germaniya suv osti flotining asosiy qo'shilmalari hamda suv usti flotining asosiy qismi jamlandi. Bundan tashqari, Bergen va Tronxeymda harbiy-havo bazalari barpo etilib, ularning kuchlari bilan Angliya hududini bombardimon qilish rejalashtirildi.

Ko'p vaqt o'tmay Belgiya, Gollandiya va Fransiya navbat keldi. 1940-yil 10-mayda bu uch davlatni tor-mor keltirishni ko'zda tutuvchi „Gelb” operatsiyasi boshlandi. Nemis qo'shinlarining bosqini Gollandiya, Belgiya va Fransiyaning aerodromlari, komanda punktlari, harbiy omborlari va muhim sanoat markazlariga kuchli havo hujumi bilan boshlandi. Vermaxtning 3000 dan ortiq samolyotlari bu ob'ektlarni kun bo'yi bombardimon qildi. So'ng zirhli qo'shilmalar hujum boshladi. 2,5 mingdan ortiq tanklardan iborat hujumkor tuzilmalar zaif qarshilik o'choqlarini osongina yanchib o'tib, shimolga va Fransiya chegarasiga tomon yo'l oldi. Ikki kun ichida ular 110 km yo'lni bosib o'tib, Fransiya chegarasiga yetdilar. 14-mayda Gollandiya taslim bo'ldi, 20-mayda esa Germaniyaning asosiy qo'shinlari La-Mansh bo'g'oziga chiqib, Belgiya va Fransiyaning shimolini Angliya-Fransiya-Belgiya qo'shinlarining yirik qo'shilmasidan kesib qo'ydi. Qarshi hujum muvaffaqiyatsiz tugadi. 1940-yil 28-mayda Belgiya ham taslim bo'ldi.

Dengiz bo'yidagi ittifoqchilar qo'lida bo'lgan so'nggi yirik port - Dyunkerk xavf ostida qoldi. Angliya qo'mondonligi o'z qo'shinlari va Belgiya-Fransiya qismlarini evakuatsiya qilishga qaror qildi. 1940-yil 4-iyungacha davom etgan Dyunkerk operatsiyasi davomida 300 mingdan ortiq kishi, shu jumladan 123 ming fransuz va belgiyaliklar olib chiqib ketildi. Bor og'ir harbiy texnika evakuatsiya hududiga tashlab ketildi va gitlerchilarning qo'lga tushdi.

Nihoyat, Yevropa davlatlarining rahbarlari haqiqiy urush boshlangani va Gitler uchun g'oyaviy masalalar ikkinchi planga chiqqanini tushunib yetishdi. Germaniyaning Yevropa va jahon miqyosidagi eski da'volari haqida gap borardi. Germaniya harbiy yutuqlari Angliyada shu qadar hayratomuz taassurot uyg'otdiki, bu Chamberlen hukumatining iste'foga chiqishiga sabab bo'ldi. 10-mayda, Germaniya Gollandiyaga qarshi hujumni uyushtirayotgan bir paytda, Angliya parlamenti Uinston Cherchill boshchiligidagi yangi hukumatni sayladi. U konservatorlar, leyboristlar va liberallardan iborat koalitsion hukumatni boshqardi. Bu „milliy birlashish” hukumati bo'lib, urushning oxirigacha 1945-yil iyunigacha faoliyat ko'rsatdi.

Hukumat dasturining taqdimoti chog'ida U.Cherchill o'z hukumatining maqsadini shunday tushuntirdi:

„Dengizda, yerda va osmonda Tangri bizga bergan butun kuch va qudrat bilan urush olib borish, inson jinoyatlarining qayg'uli ro'yxatida tengi bo'lmagan mudhish zolimlikka qarshi urush olib borish”. Butun ingliz millati urushni g'alabagacha, Gitler zulmi to'liq yo'q qilingunga va insoniyat fashizmdan xalos etilgunga qadar olib borishga so'z bergan yangi hukumat atrofiga jipslashdi.

U. Cherchill Germaniya va Rossiyaning ashaddiy dushmani bo'lib, fashizm va kommunizmni birdek qoralardi. Biroq, uning qarshisida juda katta xavf - Gitler Germaniyasi turardi. U Britaniya imperiyasiga xavf solar va eng muhimi shu edi. Cherchill bu dushmanga qarshi urush olib borishga ingliz millatining barcha tabaqalaridan vakolat oldi.

Cherchill Uinston Leonard Spenser (1874-1965) - 20-yillardan boshlab Buyuk Britaniya konservatorlar partiyasining rahbarlaridan biri. 1908 yildan boshlab turli vazirlik lavozimlarida ishlagan (ichki ishlar vaziri, aviatsiya vaziri, harbiy vazir, moliya vaziri). 1940-1945 va 1951-1955-yillarda - Buyuk Britaniya Bosh vaziri.

Germaniya qo'shinlari Parijga Dyunkerk operatsiyasini 1940- yil 5-iyunda tugatib, hujum boshladilar. Fransiya armiyasi deyarli qarshilik ko'rsatmadi. Fransiya hukumati qarshilik ko'rsatishdan bosh tortib, o'z imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida fashistlar Germaniyasi oldida

taslim bo'ldi. Vatan ozodligi, mustaqilligi xususiy mulk, daromad va imtiyozlar oldida shunchaki quruq gap bo'lib chiqdi.

Fransiya armiyasi bosh qo'mondoni general Veygan, hatto hukumatdan rozilik ham so'ramay, Parijni ochiq shahar deb e'lon qildi, ya'ni mudofaadan voz kechdi. 1940-yil 14-iyunda nemis-fashist qo'shinlari Parijga kirdi. Fransiya hukumat doiralari, fransuz burjuaziyasi Fransiya eshigini Gitlarga lang ochib berdilar.

Pol Reyno hukumati iste'fo bergach, marshal Peten yangi hukumat tuzishga ko'rsatma oldi. Hali janglar davom etayotgan, qo'shin harbiy harakatlar olib borayotgan, istehkomlar qurilayotgan bo'lsa-da, generallar yarash bitimini imzolashga hozirlik ko'rishardi. Fransiya hukumati a'zolarining ko'pchiligi Shimoliy Afrikaga – Senegal va Jazoirga qochib ketdilar. Xalq ishonib saylagan odamlar Fransiya va fransuz xalqini o'z holiga tashlab ketdilar. Petenning yangi hukumati nemis qo'shinlari kuzatuvida Vishiga yo'l oldi.

1940-yil 22-iyunda Kompen o'rmonida, 1918-yilgi Kompen yarash ahdi imzolangan joyda, marshal Foshning muzeydan olib kelingan shtab vagonida Germaniya bilan yarash ahdi imzolandi.

Yarash ahdi shartlariga ko'ra, Fransiya armiya va floti qurolsizlantirilib tarqatilardi. Nemis harbiy asirlari ozod etilardi, biroq 1.800 ming fransuz harbiy asirlari Germaniyada qolardi. Fransiya Germaniya qo'shinlarini o'z hududida saqlab turish uchun ulkan istilo to'lovlarini to'lashi lozim edi. Fransiyaning uchdan ikki qismi va mamlakat poytaxti Parij Germaniya tomonidan ishg'ol etilgandi. Mamlakatning janubiy qismi va mustamlakalarga daxl etilmagan bo'lib, ular Peten hukumati tomonidan nazorat qilinardi. Peten hukumati butun Fransiyaning hukumati deb e'lon qilindi. U Fransiya mustamlakalari floti ustidan hukmronlikni saqlab qoldi, Angliya bilan diplomatik aloqalarni uzdi. Butun Fransiya iqtisodiyoti Germaniyaga xizmat qila boshladi.

Jami fransuz korxonalarining 80% i istilo to'lovlari hisobiga nemis buyurtmalarini bajarardi. Istilo to'lovlari hisobiga Germaniya tomonidan fransuz xom ashyosining to'rt dan uch qismi va Fransiya sanoati asosiy sohalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 50 dan 100% igacha olib chiqib ketilardi. Fransuz ishchilari Germaniyaga majburiy ishlarga jalb qilindi. Jami 1 mln. ga yaqin kishi olib ketildi. Urush so'ngigacha ulardan 200 ming kishi halok bo'ldi, 228 ming kishi uyiga nogiron bo'lib qaytdi.

Peten, Veygan va ularaing hamfikrlariga kollaboratsionistlar, ya'ni Germaniya malaylari deb nom qo'yildi.

Biroq, Fransiyada hamma ham kollaboratsionist emasdi. 1940-yil 18-iyunda general De Goll Bi-Bi-Si radiosi orqali fransuzlarni Gitler bosqinchilariga qarshi kurash boshlashga chaqirib, murojaat qildi. Fransiya ikkiga – Germaniya bilan hamkorlik qiluvchilar va Germaniyaga qarshi kurashuvchilar lageriga ajraldi. De Goll Peten hukumatini sotqinlikda aybladi. „Fransiya askarlari, qayerda bo'lmangiz, kurashga qo'zg'alinglar“, deb chaqirdi u.

Fransiya tor-mor qilingach, Gitler Angliyani tor-mor keltirishni niyat qildi. Germaniya ixtiyorida endi urushni g'alaba bilan tugallash uchun manba yetarli edi. 1940-yil 16-iyulda oliy qo'mondonlikning „Zeeleve“ („Dengiz sheri“) nomli desant tashlash operatsiyasini tayyorlash to'g'risidagi direktivasi e'lon qilindi. Operatsiya 1940-yil 15-avgustga belgilangan edi, biroq u, Angliya floti yaqqol ustunlikka ega bo'lgani tufayli, amalga oshirilmay qoldi.

Fashist rahbariyati Britaniya orollarini surunkali bom- bardimon qilishni boshlab, shu yo'l bilan Angliya hukumatini taslim bo'lishga majbur qilishni ko'zladi. Hujum 1940- yil 15-avgustda yirik havo bosqini bilan boshlanib, unda 800 bombardimonchi va 1140 ta qiruvchi samolyotlar qatnashdi. Hujumlar 15 sentabrgacha davom etdi. Asosan yirik sanoat va ma'muriy markazlar - London, Koventri, Birmingem bombardimon qilindi. Hujumlar natijasida Angliyada ko'plab turar joy binolari vayron etildi. 40 mingga yaqin kishi halok bo'ldi, 46 ming kishi esa yaralandi. Asosan tinch aholi

halok bo'ldi. Biroq, Gitler rahbariyatining havo urushi yo'li bilan Angliya qarshiligini yengish borasidagi strategik rejasi xom bo'lib chiqdi.

Angliya jang qilishni bilardi. Xalqning ma'naviy ruhi sinmadi, urushni g'alabagacha yetkazish niyati yanada qat'iylashdi. Angliya havo hujumidan mudofaa tizimi ixtiyorida keng tarmoqli radiolokatsiya stansiyalari bo'lib, ular dushman samolyotlarining yaqinlashayotganini oldindan sezishga qodir edi. Lyuftvaffe qo'mondonligining qo'qqisidan qilingan hujumlar bilan shoshirish rejasi chippakka chiqdi. Germaniya aviatsiyasi endi har bir hujumda 10-15 samolyot yo'qotardi. Sentabr o'rtalarida Angliyaga qarshi havo hujumlari to'xtatildi. Angliya Germaniya aviatsiyasining buyuk qudrati haqidagi afsonani yo'qqa chiqardi.

Urushning birinchi yiliyoq deyarli butun G'arbry Yevropa tiz cho'ktirildi. Yengil g'alabalardan mast bo'lgan fashistlar Germaniyasi „Yevropada yangi tartib“ o'raatishga kirishdi. Endi u „Uchinchi reyx“ hududi hisoblanardi. Dastlabki ikki nemis imperiyalari (reyxlar) IX asrda (Karolinglar) va XIX asrda (Vilgelm II) hukm surgan, Gitlarning uchinchi reyx esa ming yil hukm surishi lozim edi. Bu qaramlik darajasi turlicha bo'lgan turli hududlarning yangi tartibi edi.

Ishg'ol etilgan ayrim hududlar Germaniyaga qo'shib olindi, boshqalari esa Germaniya amaldorlari tomonidan bevosita boshqarildi, uchinchilari so'zda muxtor sanalsada, aslida qo'g'irchoq hukumatlar tomonidan boshqarilardi.

Fashistlar Germaniyasining boshqaruv tartibi rejali terror va ommaviy qotilliklar miqyosi jihatidan beqiyos edi. Germaniya xalqini boshqa xalqlar hisobiga hududiy kenglik bilan ta'minlash rejasini amalga oshirish maqsadida Gitler Polshaning turli joylarida nemislar uchun koloniyalar tuzib, u yerlardan mahalhy aholini quvg'in qildi, ulardan arzon ishchi kuchi sifatida foydalandi. Ayni rejalar, biroq yirik miqyosda, ruslar uchun ham mo'ljallangan edi. Gitler ularni O'rta Osiyo va Sibirga quvg'in qilishni ko'zladi. Bu hududlar bilan chegaralarda nemis harbiy faxriylari yashovchi manzilgohlar barpo etish rejalashtirildi, qolgan yerlarni esa Germaniya dehqonlari egallashlari lozim edi.

Skandinavlar, gollandlar va shveysariyaliklar singari german irqiga yaqin xalqlar yashovchi mamlakatlarda ularning nemislar bilan assimilyatsiya qilinishi ko'zda tutildi. Bunday xalqlar qayta o'qitilishi, yot unsurlardan tozalanishi lozim bo'lib, ularni mustamlaka qilish ko'zda tutilmadi.

Gitler bosib olingan yerlarni iqtisodiy jihatdan faqat talonchilik manbai hisoblardi. U hamma foydali narsalar, shu jumladan butun-butun sanoat sohalarini olib chiqib ketdi. G'arbdagi bosib olingan mamlakatlar bosqinchi qo'shinlarni asl qiymatidan bir necha baravar yuqori narxlarda saqlashlari lozim edi. Nemislar daromadni barcha foydali narsalarni sotib olishga sarflab, bosib olingan xalqlarni hayotiy zarur mahsulotlardan mahram qildilar. Natsistlar o'z siyosatlarini hech kimdan yashirmasdilar. Bir natsist amaldor shunday derdi: Millat to'kin-sochin yashayaptimi yoki ochlikdan o'lyaptimi, bu meni faqat madaniyatimiz ravnaqi uchun ulardan qul sifatida foydalanishga nechog'li muhtojligimiz nuqtai nazaridan qiziqtiradi.

Yevropadagi natsistlar hukmronligining eng mudhish jihati harbiy yoki iqtisodiy muhtojlik emas, Gitler irqiy doktrinasining g'ayriinsoniy va beshafqatligida ifodalanardi. Gitler slavyanlarni fikrlashga noqodir past irq vakillari deb hisoblar, ular bilan odamday muomala qilmaslik zarurligini uqtirardi. SS reyxsfyureri G. Gimmlarning rejasiga ko'ra, nemislarga hududiy kenglik yaratish uchun o'ttiz million slavyanni yo'q qilish ko'zda tutilardi.

Gimmler Genrix (1900-1945) - bosh german fashist harbiy jinoyatchilaridan biri. 1929-yildan SS rahbari, 1936-yildan gestapo shefi, 1943-yildan Germaniya ichki ishlar vaziri. 1945-yil mayda o'z joniga qasd qilgan.

Yahudiylar borasida ham Gitlarning maxsus rejasi mavjud edi. U butun Yevropani yahudiylardan tozlashni ko'zlardi. Dastlab u barcha yahudiylarni Madagaskarga ko'chirishni

rejalashtirgan edi, biroq so'ng ularni qirib tashlashga qaror qildi. Natsistlarning o'lim lagerlarida olti milliondan ortiq yahudiy halok bo'ldi. Jami 16 ta o'lim lagerida 10 mln. kishi qirib tashlandi.

1940-yil oxiriga kelib Germaniya bosib olgan yerlarda 290 mln. kishi yashar, 45 mln. tonna po'lat quyilar, 400 mln. tonna ko'mir va 10 mln. tonna neft qazib olinar, 700 ming avtomobil, 110 mlrd. kv. elektr quvvati ishlab chiqarilardi. Bu faqat blitzkrigagina emas, uzoq muddatli va keng miqyosli urush olib borishga ham qodir dunyodagi eng qudratli armiyani jihozlash va ta'minlash uchun bemalol yetardi. Faqat shundan so'nggina Gitler Sovet Ittifoqiga qarshi urush boshlashga qaror qildi.

Gitlerning nemis xalqi uchun hududiy kenglikni yaratish rejasida Sovet Ittifoqini yo'q qilish birinchi o'rinda turardi. Angliya qarshi havo hujumlariga qadar u o'z atrofidagilarga qulay sharoit tug'ildi deguncha Rossiyaga hujum qilish niyatini bildirgandi. 1940-yil dekabrda, Angliyani bombardimon qilish davom etayotgan bir paytda, u generallarga 1941-yil 15-maygacha Sovet Ittifoqiga qarshi tayyorlanishni buyurdi. U sharqdagi blitzkrig inglizlarning umidini chilparchin qilib, esini kiritib qo'yadi, deb taxmin qilardi. „Barbarossa“nomli operatsiya rejasiga ko'ra, Qizil armiyaning qarshiligi 1941-yil kuziga qadar sindirilishi lozim edi.

1941-yil martda Bolqonda Germaniya armiyasi Yugoslaviyani bosib oldi va greklarning qarshiligini sindirdi. Bu operatsiyalar Sovet Ittifoqiga qarshi urushni olti hafta ortga surdi.

„Barbarossa“operatsiyasi 1941-yil 22-iyunda boshlandi. Gitlerga ishonchsizlik kuchli bo'lgani va sovet-german bitimi urushga tayyorlanishga go'yoki imkon bergani uqtirilishiga qaramay, Sovet Ittifoqi g'aflatda qoldirildi. Stalin sarosimaga tushdi. G'arbiy chegaralar mustahkam emas, Germaniya agressiyasiga qarshi harakatlar to'g'risidagi direktivalar yaratilmagan edi. Dastlabki ikki kundayoq ikki mingga yaqin sovet samolyotlari yerning o'zida, motorini yurgizib ulgurmay yo'q qilindi.

Brest qal'asi, dushman qadami ortida qolganiligi holda, 1941-yil 22-iyundan 20-iyulgacha qahramonona mudofaani davom ettirdi. Mudofaaning aksariyat qatnashchilari halok bo'ldi, faqat ayrimlarigina qurshovni yorib chiqishga erishdi. Bu mudofaa Ikkinchi jahon urushidagi mardlik va qahramonlik timsoli bo'lib qoldi.

Noyabr oyigacha Gitler Sovet Ittifoqiga Napoleon Rossiyaga kirganidan ham ancha ichkari kirishga muvaffaq bo'ldi: nemis qo'shinlari Leningrad darvozasi oldida, Moskva ostonasi va Donda turardi. Sovet armiyasining g'arbiy qismlaridagi 4,5 mln. kishidan 2,5 millioni halok bo'ldi, 15 ming tankdan faqat 700 tasigina qoldi. Germaniya g'alabasi muqarrar tuyulardi.

Biroq, nemislar hal qiluvchi zarbani bera olmadilar. Qizil armiyaning qahramonona qarshiligi shiddatli urush rejasini barbod qildi. Gitlerchilar ham ulkan talafot ko'rdilar va hal qiluvchi zarba uchun ularda tirik kuch ham, texnika ham qolmadi. Ular Smolensk ostonasida deyarli ikki oy turib qoldilar. Smolensk jangi 1941-yil 10-iyuldan 10-sentabrgacha davom etdi. Bu jang natijasida Sovet armiyasi fashistlarning „Markaz“gruppировkasi hujumini Moskva strategik yo'nalishida ushlab turishga muvaffaq bo'ldi. Bu Gitlerning „shiddatli urush“rejasi tanazzulining boshlanishi edi. Fashistlar Sovet armiyasining parokanda kuchlari qarshiligini Moskva ostonasida ham yenga olmadilar. Moskva mudofaasi 1941-yil 30-sentabrdan 5-dekabrgacha davom etdi. Mardona qarshilik ko'rsatilishiga qaramay, Markaz gruppировkasi mudofaani yorib o'tib, janubdan Kashira shahriga chiqdi.

Qishki sovuqlar Gitler askarlarining jangovar ruhini sindirdi. Nemis askarlari yengil yoz kiyimida bo'lib, qishga armiya^a tayyor emasdi. Bir vaqtning o'zida, sovet rahbariyati Sibirdan rezervlarni keltirish, frontda va front ortida tartib- ni tiklash va qarshi hujumni tayyorlashga muvaffaq bo'ldi. 1941-yil 5-dekabrda boshlangan qarshi hujum natijasida sovet qo'shinlari 38 nemis diviziyasini tor-mor keltirib, 11 mingdan ortiq aholi punktini ozod qildi. Nemis qo'shinlari talafoti 500 ming kishini tashkil qildi. 1300 tank, 2500 to'p, 15 mingdan ortiq avtomashina va boshqa texnika

yo'q qilindi. Noyabr va dekabrda sovet qo'shinlari Moskva ostonasida qarshi hujumga o'tib, Gitler qo'shinlariga qaqshatqich zarba berdi. Bu fashistlar Germaniyasining Ikkinchi jahon urushidagi birinchi yirik mag'lubiyati edi. Moskva ostonasida 60 diviziya tor-mor qilindi. Fashistlar qo'shinining yengilmasligi haqidagi afsona chippakka cniqarildi. Blitzkrieg barbod bo'ldi.

Gitlerning direktivasidan namuna:

Shahar shunday qurshab olinishi lozimki, undan biror-bir ras askari, biror-bir fuqaro - u erkakmi, ayolmi yoki bolami - chiqib ketolmasin. Chiqishga bo'lgan har qanday urinish kuch bilan to'xtatilsin. Moskva va uning atrofi suvga bostirilishi uchun zarar tayyorgarlik ko'rilsin. Bugun Moskva turgan yerda dengiz paydo bo'lishi va u rus xalqining poytaxtini madaniyatli dunyo ko'zidan abadiy yashirmog'i lozim. G'arbiy front qo'mondoni G. K. Jukovning I. Stalinga yozgan 1941-yil 14-dekabrda xatidan.

Guderian gruppasining harbiy asirlari ko'rsatishicha, ularga sovuq tushishi munosabati bilan hozir Moskvadagi paradda kiyish uchun o'zlari bilan keltirgan parad libosini kiyishga ruxsat berilgan.

Oliy Bosh Qo'mondon Qarorgohining 1941-yil 16-avgustdagi buyrug'idan

...Buyuraman

1. Jang paytida unvon belgilarini yulib tashlovchi va front ichkarisiga qochuvchi yoki dushmanga asir tushuvchi komandirlar va siyosiy xodimlar dezertir deb hisoblansin, ularning oilalari qasamni buzgan va Vataniga xiyonat qilganlarning oilalari sifatida qamoqqa olinsin.

Barcha yuqori komandirlar va komissarlarga boshliqlar tarkibidan bo'lgan bunday dezertirlarni joyida otib tashlash majburiyati yuklansin. Davlat Mudofaa Qo'mitasi Raisi I. Stalin

21-son direktivadan „Barbarossa“ rejasi Fyurer stavkasi 1940.18.12.

O'ta maxfiy Faqat qo'mondonlik uchun

Germaniya qurolli kuchlari Sovet Rossiyasini qisqa muddatli kompaniya davomida Angliyaga qarshi urush tugagunga qadar tor- mor keltirishga tayyor bo'lishlari lozim.

Ruslarning G'arbiy Yevropadagi quraqlikdagi qo'shinlarining asosiy kuchlari dadil operatsiyalarda tanklarning tez harakatlanishi va chuqur kirib borishi vositasida yo'q qilinishi kerak. Dushmanning qobil kuchlari keng ras hududlariga chekinishiga yo'l bermaslik zarur.

Shiddatli ta'qib yo'li bilan ras harbiy-havo kuchlarining Germaniya imperiyasi hududiga hujumlarini istisno etuvchi marralar egallanishi lozim.

Operatsiyadan yakuniy maqsad Osiyo Rossiyasiga qarshi Volga-Arxangelsk umumiy chizig'i bo'yicha to'siq barpo etish hisoblanadi. Shunday qilib, zarur holda ruslarning Uraldagi so'nggi sanoat tayanchini aviatsiya yordamida yakson qilish mumkin bo'ladi.

Rus harbiy-havo kuchlarining samarali harakatlari operatsiya boshidayoq kuchli zarbalarimiz bilan bartaraf etilishi lozim.

3. GITLERGA QARSHI KOALITSIYA DAVLATLARNING O'ZARO MUNOSABATLARI

Ikkinchi jahon urushidagi tub burilish Gitlerga qarshi koalitsiyaning kengiyishiga olib keldi. 1942-1943- yillarga kelib avval betaraflik siyosati yurgizgan bir qator davlatlar – Meksika, Braziliya, Eron, Iroq, Boliviya, Kolumbiya fashistik blok davlatlariga qarshi urush e'lon qilishga qaror qiladilar va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Deklaratsiyasiga imzo qo'yadilar. 1943-yilning oxiriga kelib 32 ta davlat BMT Deklaratsiyasiga imzo qo'yadi. Butun progressiv jamoatchilik fashizmga qarshi o'zlarining noroziliklarini bildiradilar.

Stalingrad ostidagi janglaridan keyin, ayniqsa, Kursk jangidan keyin AQSH va Angliya hukmron doiralari Sovet Ittifoqining bir o'zi ham Germaniyani engib, butun Evropani ham

fashizmdan ozod qilishi muvofiq degan xulosaga keldilar. Ikkinchi frontni yana orqaga surish foydasiz ekanligi yaqqol ko'rinib qoldi. Aksincha, endilikda G'arbiy Evropaga o'larining qo'shinlarini tushirish maqsadga muvofiq deb sanab, Qizil Armiya Evropani ozod qilishiga yo'l qo'ymaslik kerakligini angalab etdilar.

CHerchill va Ruzvelt o'zlarining navbatdagi 1943-yilning avgust oyida Kvebekda bo'lib o'tgan uchrashuvlari paytida, Amerika delegatsiyasi "Germaniyani Sovet Ittifoqi tomonidan mag'lub qilinishi o'ta xavfli", shuning uchun tezroq Fransiyada ikkinchi frontni ochish kerak deb ma'lum qiladi. Bundan tashqari Amerika hukumati SSSR ni Yaponiyaga qarshi urushga jalb qilishni istar edi va Sovet Ittifoqiga bergan va'dalarini bajarishni talab qilardi. Ruzveltning talabiga ko'ra, Vashington konferensiyasi 1944-yil 1-maydan kechiktirmasdan Fransiyaga desant tushirishni ma'qulladi. Ikkinchi front ochish haqidagi maqsadlarining birligi sabab, AQSH, Angliyani Sovet Ittifoqiga o'zaro yaqinlashtirdi. Ammo urushdan keyin, eng avvalo, fashizmdan ozod qilingan davlatlarda qanday tuzum barpo qilish muammolarining avj olib borishi vaziyatni keskinlashtirardi. 1943-yili Sovet Armiyasining chegaralariga yaqinlashib qolgani sabab Polshadagi ahvol yuzasidan muammolar chiqadi. Xuddi shunday ingliz-amerika qo'shinlarining Fransiyaga tushirilishi kerak bo'lgan bir paytda, Fransiyadagi ahvol yuzasidan ham muammolar chiqdi.

Polshaning horijdagi hukumati 1941-yilda Sovet Ittifoqi bilan Germaniyaga qarshi urushda bir-birlariga o'zaro yordam berish to'g'risida shartnoma imzolashgan bo'lsalarda, Polsha SSSR ga nisbatan dushmanlarcha munosabatda siyosat olib bordi. Muhojir hukumat G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyaning qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan SSSR ning yangi chegaralarini tan olmaydi; SSSR da tuzilgan general Andersning polyak armiyasini sovet-german frontida foydalanishni rad etadi va uni Sovet Ittifoqi chegaralaridan olib chiqib ketishni talab qiladi; ommaviy nashrlarda sovetlarga qarshi tashviqot boshlab yuboradi, Sovet hukumati Anders armiyasini chegaradan chiqib ketishiga ruxsat beradi, biroq, 1943-yilning aprel oyida Londonda joylashgan muhojir polyak hukumati bilan diplomatik aloqalarni uzadi. Sovet Ittifoqidagi polyak kommunistlarining tashabbusi bilan, "polyak vatanparvarlari ittifoqi" tashkil qilinadi. Tashkilot Sovet Ittifoqining ruxsati bilan fashistlarga qarshi urushish uchun polyak fuqarolaridan harbiy qismlar tuzishni boshlab yuboradilar. Bu harakatlar muhojir polyak hukumatini qo'llab-quvvatlayotgan AQSH va Angliya hukumatiga ma'qul bo'lmaydi.

SSSR, AQSH va Angliya kelishmovchilaridan yana biri bu – Fransiyadagi ahvol edi. 1943-yilning iyun oyida general de Goll boshchilik qilayotgan "Kurashayotgan Fransiya" harakati general Jiro tarafdorlari bilan birlashadilar. Jazoida De Goll va Jiro raisligida o'zini markaziy fransuz hukumati deb e'lon qilgan - milliy ozodlik yagona Fransiya komiteti (FKNO) tuziladi va tashkilotni tan olishlari uchun Angliya, SSSR va AQSH ga murojaat qiladi. Sovet Ittifoqi FKNO ni tezlik bilan tan olish zarur deb sanaydi, biroq Angliya va AQSH o'zining mustaqilligi va qat'iyiligi bilan milliy qadriyatlarni himoya qilgan - general de Gollga ishonch bildirmaydilar. 1943- yilning avgustiga kelibgina Sovet Ittifoqining qat'iy talabi bilan Angliya va AQSH bir vaqtning o'zida FKNO ni tan oladilar. Faqat Sovet Ittifoqigina FKNO ni Fransuz respublikasining davlat manfaatlarini ifodalovchi rahbari va fashizmga qarshi kurashayotgan barcha fransuz vatanparvarlarining rahnamosi sifatida tan oladi.

Urush davridagi xalqaro konferensiyalar.

1943-yilning oktyabr oyida Moskvada SSSR, AQSH va Angliya davlatlari tashqi ishlar ministrilarining konferensiyasi bo'lib o'tadi. Konferensiya qatnashchilari "YAlpi xavfsizlik to'g'risidagi masalalar bo'yicha deklaratsiya" qabul qilinadi, bunga Xitoy ham qo'shib olinadi. SSSR, AQSH, Angliya va Xitoy urushdan keyin Birlashgan Millatlar umumiy tashkilotining boshqa davlatlari bilan birgalikda uyushgan holda dunyoda tinchilik va xavfsizlikni saqlash maqsadida

xalqaro tashkilot tuzishga kelishiladi va bu tashkilot natijada Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) deb nomlanadi. Konferensiya qator boshqa hujjatlar qabul qiladi.

“Avstriya haqidagi deklaratsiya”da AQSH, SSSR va Buyuk Britaniya Avstriyaning Germaniya tomonidan bosib olinishini tan olmaydi va “ozod va mustaqil bo‘lib tiklangna Avstriyani ko‘rishni hohlaydilar”. “Italiya haqidagi deklaratsiya”da “fashizm va uning barcha zararli ta’sir va oqibatlari to‘laligicha yo‘qotilishi zarur” va “italyan xalqiga esa demokratik prinsiplarga asoslangan davlat tuzishni to‘laligicha berish kerak”.

Konferensiyada SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya davlatlari boshliqlari bilan birgalikda gitlerchilar o‘zlari qilgan yovuzliklari uchun javob berishlari kerakligi to‘g‘risida deklaratsiya qabul qiladilar. SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya davlatlari BMT ning barcha vakillari, g‘alabadan so‘ng Germaniya qilgan yovuzliklar aybdorlari “ularni qaysi davlatda yomonliklar qilgan bo‘lsa, o‘sha davlatga jo‘natib, o‘sha davlat qonunlari bo‘yicha sudlanishi va jazolanishlari kerak”

Harbiy operatsiyalarni rejalashtirish va urushdan keyingi tuzum va boshqa masalalar konferensiyada yopiq tartibda hal qilindi. Angliya va AQSH Evropada ikkinchi front 1944 yilning bahorida bo‘lishini ma’lum qiladilar. AQSH delegatsiyasining rahbari I.V.Stalinga Yaponiya bilan bo‘layotgan urushga yordam berishlarini so‘rab murojaat qiladi. Stalin Germaniyani tor-mor qilganidan keyin, Yaponiya bilan bo‘layotgan urushga qatnashishga tayyorligini aytadi.

AQSH va Angliya Germaniyani bo‘laklarga bo‘lib tashlab, Evropada Sovet Ittifoqiga bas kela oladigan o‘ziga xos federatsiya tuzishni taklif qiladi. SSSR delegatsiyasi bunga qarshi chiqadi.

Tashqi ishlar ministrilarining Moskva konferensiyasi har turli kelishmovchiliklarga qaramasdan, fashistik koalitsiya kuchlarining birlashuvi sabachisi bo‘ldi. Bu konferensiyada qator kelishilgan qarorlar qabul qilinadi va 1943-yilning dekabr oyida Tehronda bo‘ladigan uch buyuk davlatlar boshliqlarining birinchi uchrashuviga tayyorgarlik ko‘riladi.

Tehron konferensiyasida asosan harbiy harakatlar planlarini tuzish bosh masala bo‘ldi. Vashington, Kvebek va Moskva konferensiyalarda qabul qarorlarga qaramasdan, Cherrchill, Fransiya harbiy kuchlar tashlashni chetga surib, o‘rniga Bolqonda qator operatsiyalar o‘tkazishni taklif qiladi. Uning bu takliflarining asl mohiyatini konferensiya qatnashchilari uchun juda ham aniq va ravshan edi. “U bir ilojini topib Markaziy Evropaga kirib olish, shuning bilan Qizil Armiyani Avstriya va Ruminiya va hatto iloji bo‘lsa Ruminiya ham kirtimaslik”, - deb aytadi Ruzvelt o‘g‘liga. Cherrchillning bu taklifga Sovet Ittifoqi qat’iy ravishda e’tiroz bildiradi. AQSH delegatsiyasi ham qo‘llab - quvvatlamaydi.

Tehron konferensiyasining ingliz-amerika qo‘shinlarini SHimoliy Fransiya 1944 yilning may oyida tushirish haqida uzil-kesil qaror qabul qiladi. Ittifoqchilarning qo‘shinlarini tushirishlariga yordam tariqasida Sovet Ittifoqi SHarqiy frontda katta hujum uyushtirishga va’da beradi.

Urushdan keyingi davlat tuzilishi masalalarida Ruzvelt va Cherrchill Germaniyani bo‘laklarga bo‘lishni: Ruzvelt – 5, Cherrchill esa – 2 ta davlatga ajratishni taklif qildilar. Sovet Ittifoqi bu takliflarni yoqlamaydi, va konferensiya bu masala yuzasidan hech qanday qaror qabul qilmaydi. Cherrchill Polshaning sharqiy chegaralrini Kerzon chizig‘i bo‘ylab o‘rnatish, g‘arbiy chegaralarini esa – Oder daryosi chizig‘i bo‘ylab berishni taklif qiladi. Ushbu taklif bo‘yicha G‘arbiy Polsha erlarining Germaniyaga o‘tib ketgan qismi Polshaga qaytarib berilardi. Bu masla ham orqaga suriladi.

Tehron konferensiyasining natijalari umumiy olib qaraganda, ijobiy hal qilingan edi. Konferensiya fashizmga qarshi etakchi davlatlarning birdamligiga va Germaniga qarshi olib boriladigan harbiy harakatlar planlarini kelishib olishishga imkoniyat yaratib berdi. Tehronga ketaturib va qaytayotib, Ruzvelt va Cherrchill Xitoy hukumati rahbari Chan Kayshi bilan uchrashadilar. Misrning poytaxti Qohirada bo‘lib o‘tgan bu uchrashuvda asosan, Yaponiya bilan urush masalasi muhokama qilindi. Qohirada AQSH, Buyuk Britaniya va Xitoy birgalikda harbiy

urushlar olib borib, Yaponiyaning so‘zsiz taslim bo‘lishiga erishish to‘g‘risida deklaratsiya qabul qilindi. Ular, “Yaponiya kuch va o‘zining ochko‘zligi bilan butun bosib olingan erlaridan haydab chiqariladi” deb e‘lon qiladilar. Xususan, “Yaponiyani birinchi jahon urushi boshlaridan bosib olgan Tinch okeanidagi barcha orollaridan mahrum qilish”, “Yaponiyaning xitoyliklardan tortib eolgan barcha erlarini Xitoyga qaytarib berishi”, Koreyaga esa “lozim bo‘lgan paytda” ozodlik va mustaqillik berish zarurligini nazarda tutilgan edi.

Tehron konferensiyasi 1943-yilning 28-noyabrdan 1-dekabrgacha bo‘lib o‘tgan uch davlat rahbarlarining Tehron konferensiyasi Gitlarga qarshi koalitsiyaning vujudga kelishida muhim qadamlardan biri bo‘ldi. U Stalingrad jangi va Al-Alamayn yaqinidagi jangdan so‘ng, faqat harbiy emas, dunyoning urushdan keyingi taqdiri borasidagi masalalar ham ko‘ndalang turgan Ikkinchi jahon urushida hal qiluvchi burilish yasalgan yilda bo‘lib o‘tdi. „Mamlakatlarimiz faqat urush davomida emas, undan keyingi tinch davrda ham hamkorlik qilishlariga ishonch bildiramiz ‘’, deb aytilgan edi uch davlat deklaratsiyasida. „Biz Germaniya qurolli kuchlarini tor-mor qilish rejasini kelishib oldik‘‘, deb qayd etdilar F. Ruzvelt, U. Cherrill va I. Stalin. Konferensiya 1944-yil may oyidan kechikmay Fransiyada ikkinchi frontni ochish haqida qaror qabul qildi. Polsha chegaralari Sharqda Kerzon, G‘arbda Oder va Neyse daryolari chizig‘i bo‘ylab o‘tishi haqida kelishib olindi. Konferensiyada Sovet Ittifoqiga Sharqiy Prussiyaning bir qismi, shu jumladan Kenigsberg shahrini berish haqida qaror qabul qilindi. Boshqa qator muhim masalalar haqida ham kelishildi. Eron urushdan so‘ng hududiy yaxlitligini saqlagan holda mustaqil davlatga aylanishi lozim edi. Sovet Ittifoqi Yevropada harbiy harakatlar nihoyasiga yetganidan so‘ng Yaponiyaga qarshi urush boshlash majburiyatini oldi.

Konferensiya yakunlari muzokara yo‘li bilan har qanday davlatlararo ixtiloflarni hal qilish mumkinligini ko‘rsatdi. Uch davlat rahbarlari g‘alabani va urushdan keyingi hamkorlikni ta‘minlash borasida harbiy va siyosiy hamkorlikning mustahkam poydevorini o‘rnatdilar. Konferensiya qarorlari Gitlarga qarshi koalitsiyaning jipslashishi va mustahkamlanishiga ko‘maklashdi.

SSSR, AQSH va Angliya o‘rtasidagi hamkorlikning rivojlanishida 1945-yil fevralda bo‘lib o‘tgan uch buyuk davlatlar rahbarlarining Qrim konferensiyasi muhim bosqich bo‘ldi. Urush nihoyasiga yetib qolgan, g‘alaba yaqin edi. Konferensiyada mag‘lub Germaniya va ozod qilingan Yevropaga nisbatan hamkorlikdagi siyosat rejalarining ishlab chiqilishi bosh masala hisoblandi. Uch davlat rahbarlari natsizmni, uning qurolli kuchlari, bosh shtabi, barcha idoralarini yo‘q qilish, fashistlar Germaniyasi rahbarlarini jazoga tortish, natsizmning nemis xalqining madaniy va iqtisodiy hayotiga har qanday ta‘sirini bartaraf etishga kelishdilar.

Bu maqsadlarga erishish uchun ittifoqchilar Germaniyani uzoq vaqt davomida istiloda saqlashga qaror qildilar. Nag bir davlatga ma‘lum istilo hududi ajratildi. Konferensiya qatnashchilari Germaniya boshqa mamlakatlarga yetkazgan zararni reparatsiyalar to‘lash yo‘li bilan qoplashini kelishib oldilar, biroq reparatsiyalar miqdori belgilanmadi. Konferensiya „Ozod Yevropa to‘g‘risidagi deklaratsiya‘‘ni e‘lon qildi. Unda ittifoqchilarning ozod qilingan xalqlarga fashizmning so‘nggi qoldiqlarini yo‘q qilish va, o‘z xohishlariga ko‘ra, demokratik tuzumlarni barpo etishda ko‘maklashish uchun Yevropadagi siyosatlarini o‘zaro kelishish- lari zarurligi ta‘kidlandi. Ushbu munosabat bilan Polshada sovet rahbariyati tomonidan tuzilgan kommunistlardan iborat muvaqqat hukumatni keng demokratik asosda, Polshaning o‘zidagi va undan tashqaridagi polyak demokratlari va jamoat arboblari jalb etish yo‘li bilan qayta tashkil qilish ko‘zda tutildi.

Qrim konferensiyasi ishlab chiqilgan BMT Nizomi loyihasini ma‘qulladi va 1945-yil 25-aprelda San-Fransiskoda BMTning Ta‘sis konferensiyasini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Sovet Ittifoqi o‘zinig Yaponiyaga qarshi urush boshlash niyatini tasdiqladi. Buning evaziga Mongoliya Xalq Respublikasining avvalgi mavqeini saqlab qolish, Sovet Ittifoqiga Saxalinning janubiy qismi, Kuril orollarini berish, Port-Arturdagi harbiy-dengiz bazasini taqdim etishga qaror qilindi.

Yalta konferensiyasi fashistlar Germaniyasiga qarshi kurashda va urushdan keyingi hamkorlikni rivojlantirishda tashlangan yangi katta qadam bo'ldi. Ixtiloflarga qaramay, Gitlerga qarshi koalitsiyaning bosh davlatlari hamkorlikni davom ettirdilar.

1945-yil 13-yanvarda gitlerchilarning Sharqiy Prussiyadagi qo'shinlarini tor-mor qilish operatsiyasi boshlandi. Bu Ikkinchi jahon urushining eng ulkan janglaridan biri bo'ldi. Unda gitlerchilar ustidan bir necha baravar ustun bo'lgan to'rt front qo'shinlari qatnashdilar. Fashistlar Germaniyasining hech qanday rezervi qolmagan edi. Sovet qo'shinlari tirik kuchda uch, samolyot va tanklarda besh baravar ustunlikni qo'lga kiritdi. Aprel oyining boshida fashistlarning shimoldagi gruppirovkasi tor- mor keltirilib, 1945-yil 9-aprelda Prussiya poytaxti Kenigsberg (hozirgi Kaliningrad) shahri qo'lga kiritildi.

1945-yil yanvar oyi oxiri – fevral oyining boshlarida sovet qo'shinlari Oderni kechib o'tdilar. Gitler Germaniyasi poytaxtiga 60 km qoldi. Fevralda Berlin ostonasidagi so'nggi mudofaa marrasi yorib o'tildi. Martda sovet qo'shinlari quyi Sileziyani va Brandenburg viloyatini egalladilar. Bir vaqtning o'zida G'arbda ittifoqchi qo'shinlar nemislarning Reyndagi mudofaa marrasini yorib o'tib, Rurdagi gruppirovkani qurshovga oldilar. 18-aprelda 325 ming kishilik dushman gruppirovkasi qarshilikni to'xtatib, taslim bo'ldi.

Germaniya qo'mondonligi qo'shinlar ustidan nazoratni qo'ldan chiqardi, ular noma'lum tomonga qarab qochib borayotgan to'dalarga aylandilar. Germaniya shaharlari taslim bo'lganlik belgisi hisoblangan oq bayroqlarga to'lib ketdi. Jangovar ruh so'ndi, kurashni davom ettirishga kuch ham, manba ham tamom bo'ldi. Gitlerchilar so'nggi rezerv-gitleryugend va folksshturm - 14-15 yashar o'smirlar va 60-65 yoshli qariyalardan tuzilgan otryadlarni jangga tashladilar. Ularning ko'pchiligi quroldan foydalanishni ham bilmay, tengsiz va shafqatsiz janglarda halok bo'ldilar. Gitlerchilar maxfiy qurollari borligi va ular tez kunda ishga solinib, g'alabani ta'minlashini aytib xalqni aldashardi. Ular umrlarini bir necha kunga bo'lsada, uzaytirishga urinishardi.

Biroq, ularning so'nggi damlari ham yetib keldi. 1945- yil 16-aprelda Germaniya imperiyasi poytaxti - Berlin shahri uchun hal qiluvchi jang boshlandi. Berlinni Gitler qo'shinlarining so'nggi qoldiqlari himoya qilardi. Biroq, ular endi ahvolni saqlab qola olmasdilar. Ikkinchi jahon urushining so'nggi jangi tong otmasdanoq boshlandi. Uch mingta projektor hujum qiluvchilarning yo'lini yoritib, gitlerchilarning ko'zlarini qamashtirdi. Sovet qo'shinlari niqob sifatida tutun tarqatish vositasini qo'lladilar. Hujumni kuchaytirish uchun jangga tanklar tashlandi. Projektor nurlaridan ko'zlari qamashgan, tutundan nafasi bo'g'ilgan, minglab tank va samolyotlar ovozi, o'n minglab to'plar va „katiusha“ minomyotlarining gumburlashidan garang bo'lgan fashistlar sarosimaga tushdilar. 24-aprelda 1-Belorus fronti (marshal G. K. Jukov) va 1-Ukraina fronti (marshal I. S. Konev) qo'shinlari Berlinning janubi-sharqida qo'shilib, Berlin qurshovini nihoyasiga yetkazdilar.

Bu Gitler Germaniyasining nihoyasini anglatardi. Gitlerchilarni qasosdan endi hech narsa saqlab qololmasligi ma'lum bo'ldi. Gitlerchilar rahbariyati intiqomdan qutulib qolishga urindi. Sovet to'plarining gumburlashlari eshitilishi bilan Berlindagi bunkerda Gitler, Gimmmler, Gebbels o'z jonlariga qasd qildilar. Gebbels avval xotini va to'rt qizini ham otib tashlashni buyurdi. Ular insoniyatga qarshi jinoyatlari uchun qattiq jazo oldilar. Bu 1945-yil 30- aprelda sodir bo'ldi. Xuddi shu kuni reyxstagni shturm qilish boshlandi va sovet askarlari g'alaba bayrog'ini reyxstag peshtoqiga o'rnatdilar. 2-mayda Berlin shahri taslim bo'ldi.

1945-yil 9-mayda Berlin yaqinidagi Karlxorstda AQSH, SSSR, Angliya va Fransiya qo'shinlari qo'mondonligi vakillari ishtirokida fashistlar Germaniyasi vakillari so'zsiz taslim bo'lish to'g'risidagi hujjatni imzoladilar. Fashistlar Germaniyasi tomonidan olti yil muqaddam boshlangan qonli urush uning to'liq tor-mor keltirilishi bilan tugadi. Gitler orzu qilgan ming yillik reyxning umri o'n ikki yilga ham yetmadi.

1945-yil 5-iyunda ittifoqchi qo'shinlar Germaniya qurolli kuchlarining Ikkinchi jahon urushidagi to'liq mag'lubiyati va so'zsiz taslim bo'lganini tasdiqlovchi Germaniyaning mag'lubiyatga uchrash to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qildilar. Germaniya ustidan hukmronlikni SSSR, Buyuk Britaniya, AQSH hukumatlari va Fransiyaning muvaqqat hukumati qo'shinlari bosh qo'mondonlari zimmasiga yukladilar. Ularning harakatlarini muvofiqlashtirish maqsadida Germaniyada Nazorat kengashi tuzildi.

1945-yil 17-iyuldan 2-avgustgacha Berlin yaqinidagi Potsdamda, sobiq Gogensollernlar saroyida uch buyuk davlat boshliqlari - F.Ruzvelt o'limidan so'ng 1945-yil 12-aprelda saylangan G.Trumen (AQSH), I. Stalin (SSSR), U. Cherrchill (Buyuk Britaniya), keyinroq uning o'rnini egallagan K. Etti ishtirokida konferensiya o'tkazildi. Konferensiya „german militarizmi va natsizmi tiklanishining yoki qayta tashkil etilishining abadiy oldini olish uchun“ barcha natsistik tashkilotlarni (denatsifikatsiya) va harbiy muassasalarni tugatish haqida qaror qabul qildi. Barcha natsist yo'lboshchilar va harbiy jinoyatchilar qamoqqa olinishi hamda jazolanishi lozim edi. Konferensiya qarorlarida german iqtisodiyotini markazlashtirishdan xoli etish, german monopoliyalarni yo'qotish haqida so'z yuritildi. Kenigsberg shahri va uning yaqinidagi hudud Sovet Ittifoqiga berildi. Polshaning endilikda Oder va Neyse daryolari bo'ylab o'tadigan g'arbiy chegaralari belgilandi.

Germaniyada qat'iy tartibot o'rnatilib, oliy hokimiyat SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiya qurolli kuchlari bosh qo'mondonlari tomonidan amalga oshirilishi shart edi. Shuningdek, Germaniyadan reparatsiyalar, german savdo floti, harbiy jinoyatchilar va Germaniya ittifoqchilari bilan sulh shartnomalari tuzish haqida ham qarorlar qabul qilindi. Konferensiya qarorlarida „ittifoqchi armiyalar butun Germaniyaning istilosini amalga oshiradi hamda german xalqi muvaffaqiyatlari vaqtida o'z qo'llab-quvvatlashini ochiq ifodalagan va ko'r-ko'rona bo'ysungan shaxslarning rahbarligi ostida sodir etilgan dahshatli jinoyatlar uchun gunohini yuva boshlaydi“ deyilgan edi.

Yevropada tinchlik o'rnatildi. Biroq, Uzoq Sharqda hamon urush davom etmoqda edi. Bu yerda ham g'alabaning yaqinligi aniq edi. AQSh va Angliya endi Yaponiyaga qarshi harbiy harakatlarning barcha sohalarida hal qiluvchi ustunlikka ega edi. AQSH va Angliya qo'shinlari bevosita Yaponiya chegaralariga yaqinlashdilar. 1945-yil iyun oyi oxirida AQSH qo'shinlari Filippinni egallab, Okinavaga desant tushirish operatsiyasini boshladilar. To'g'ri, yaponlarning qarshiligini sindirish uchun ularga salkam uch oy vaqt zarur bo'ldi.

Urushning nihoyasini tezlashtirish va katta talafotlar bermaslik maqsadida AQSH harbiy hukumati Yaponiyaga atom bombasi tashlashga qaror qildi. 1945-yil 6-avgustda AQSH samolyoti Xirosima shahriga atom bombasini tashladi. 200 ming aholi yashaydigan shahar vayronaga aylandi. 70 ming kishi halok bo'ldi. Ikki kundan so'ng, Qrim konferensiyasi qaroriga muvofiq, Sovet Ittifoqi Yaponiyaga urush e'lon qildi, ertasiga esa sovet qo'shinlari Kvantun armiyasiga qarshi keng miqyosli harbiy harakatlarni boshladi. O'sha kuni Nagasaki shahriga ikkinchi atom bombasi tashlandi. 1945-yil 14-avgustda Yaponiya taslim bo'ldi. Yaponiya hukumati faqat bitta shartni - imperator hokimiyatini yapon millatining birligi va yapon xalqi ijodkor ruhining tiklanishiga bo'lgan umid ramzi sifatida saqlab qolishni so'radi. Ittifoqchilar so'zsiz taslim bo'lishni talab qilishda davom etishsa-da, AQSH prezidenti Trumen shartni qabul qildi va 1945-yil 2-sentabrda „Missuri“ linkorida Yaponiya vakillari Yaponiyaning taslim bo'lishi to'g'risidagi hujjatni imzoladilar. Ikkinchi jahon urushi german fashizmi va yapon militarizmining to'liq tor-mor keltirilishi bilan tugadi.

1945-yil 25-aprelda San-Fransiskoda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'sis konferensiyasi ish boshladi. Unga Birlashgan Millatlar Deklaratsiyasini imzolagan va Germaniyaga 1945-yil 1-martigacha urush e'lon qilgan 42 davlat vakillari taklif etildi. 1945-yil 26-iyunda konferensiya BMT Nizomini qabul qildi. U BMTning birinchi navbatdagi vazifasi tinchlik va xavfsizlikni saqlashdan iborat ekanini e'lon qildi. Bugungi kunda xalqaro huquqning eng muhim hujjatlaridan biri sanalgan

BMT Nizomida turli ijtimoiy-siyosiy tizimdagi davlatlarning tinch-totuv kun kechirishi va hamkorlik qilishining asosiy tamoyillari belgilandi. BMT Nizomida qayd etilgan maqsadlardan biri „irqi, jinsi, tili va dinidan qat’i nazar, barchaning insoniy huquq va asosiy erkinliklariga hurmat“ ruhida xalqaro hamkorlik qilish edi.

Potsdam konferensiyasida uch buyuk davlat rahbarlari asosiy harbiy jinoyatchilarni tezkor va adolatli sud’ga topshirishga qaror qilishdi. 1945-yilning 1-sentabrda ayblanuvchilarning birinchi ro’yxati e’lon qilindi. Fashizm o’zining jinoyatkorona yurishini boshlagan shahar Nyurenbergda 1945-yil 20-noyabrdan 1946-yil 1-oktabrgacha Xalqaro tribunal natsist harbiy jinoyatchilarning birinchi guruhini sud qildi. Javobgarlikka tortilganlar orasida G.Gering, Keytel, Kaltenbrunner, I. Ribbentrop, A.Yodl, A.Shpeyer va boshqalar bor edi. 12 kishi o’lim jazosiga hukm etilib, qatl qilindi (o’zini zaharlagan G. Geringdan tashqari), 7 kishi uzoq muddatli yoki umrbod qamoq jazosiga hukm qilindi. Ulardan biri G.Gess hayotining oxirigacha turma kamerasida qolib, shu yerda umrini tugatdi.

Natsional-sotsialistik partiya, SS, gestapo, SD jinoyatchi tashkilotlar deb e’tirof etildi. Nyurenberg jarayoni german fashizmining g’ayrinsoniy mohiyatini, uning ko’plab xalqlar va davlatlarni yo’qotish rejalarini fosh etdi. Nyurenberg sudi qaroriga ko’ra, agressiya insoniyatga qarshi eng og’ir jinoyat deb e’tirof etildi. Bu haqiqiy xalqlar sudi, tarixning ayovsiz, lekin adolatli sudi bo’ldi. Ikkinchi jahon urushiga so’nggi nuqta qo’yildi.

4. FASHIZMGA QARSHI VA MILLIY-OZODLIK HARAKATLARINING KO‘TARILISHI

Jahon urushidagi tub burilish va bosqinchilarning shubhasiz mag’lub bo’lishlari ma’lum bo’lishi - antifashistik va milliy-ozodlik harakatlarining shiddatli o’sishiga olib keladi. Qarshilik harakatining ijtimoiy bazasi kengaya bordi. U oammalshib bordi. Bu tashkilotlarga ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, aholining burjua qatlami vakillari kira boshladilar. Qatnashchilar orasida turli millat vakillari, shular qatorida bosqinchilar haydab olib kelingan va lagerlardan qochibkelgan rus muhojirlari va sovet fuqarolari ham bor edi. CHet ellarda fashist bosqinchilariga qarshi kurash olib borgan sovet fuqarolarining umumiy sanaganda – 40 ming dan ortiqni tashkil qiladi.

Bora-bora bu milliy – ozodlik harakatlari gruppirovkalari ham harbiy otryadlar tuza boshlaydilar. Burjua-vatanparvar tashkilotlari arboblari – avval kommunistlarni, ulardan keyin ozodlik qo’zg’olonlarini ham tan olishni boshlaydilar.

Turli Qarshilik gruppirovkalari bir-birlari bilan aloqa o’rnatishar, umumiy rahbar organlari tuzishar, hamkorlikdagi programmalar ishlab chiqishardi. SHuning bilan bir qatorda Qarshilik harakatida turli sinfiy, siyosiy qarashlardagi eski va yangi kelishmovchiliklar saqlanib qolgan qatnashchilariga bog’liq muammolar ham uchrab turardi. Qarshilik harakatining juda katta qimi urushgacha bo’lgan davrdagi tuzumga qaytishni hohlamas edi, ammo ularning kelajakdagi jamiyat tuzumi to’g’risidagi qarashlari turlicha edi. Harakatning chap qanoti vakillari kommunistlar bilan birgalikda – mehnataakashlar ommasi istaklarini yoqlovchi ijtimoiy o’zgarishlar tarfdori bo’lib chiqadilar. O’ng qanot vakillari – qator islohotlar tarfdori bo’lsalarda, burjua tuzumining tarafdorlari edilar. Bunday qarama-qarshiliklar Qarshilik harakatining kelgusidagi rivojlanishini belgilab berdi.

4.1. G’arbiy Yevropada qarshilik harakatining kengayishi.

Ittifoqchilarning Afrikaning janubiy qismin egallashi, Afrikaga qo’shinlarini tushirganidan keyin Fransiyada vaziyat keskin o’zgardi. Peten hukumati mustaqil territoryasidan, barcha mustamlaka erlaridan va qolgan armiya va flotidan mahrum bo’ladi. Omma orasida o’z obro’sini

yo‘qotish bilan birga fransuz burjuaziyasni qo‘llab-quvvatlashidan ham judo bo‘ladi. Qurolli janglar ko‘lami sezilarli tarzda o‘sdi. Agar 1942-yili fransuz partizanlari temir yo‘llarda 276 ta qo‘poruvchilik ishlari olib borishgan bo‘lsa, 1943- yilga kelib etti baravarga ya‘ni ikki mingtaga etdi. Kompartiya “Birlashish, qurollanish, kurashaish” shiorini ilgari surib bosqinchilarga qarshi ozodlik qo‘zg‘oniga tayyorlik ko‘radi. 1942 yili fransuz Qarshilik burjua-vatanparvar tashkiloti o‘zining jangovor guruhlariga “Maxfiy armiya”ni birlashtirib oladi, va general de Goll hukumatini tan oladi. 1942-yilning noyabr oyida Kommunistik partiya general de Goll boshchilik qilayotgan “Kurshayotgan Fransiya” kuchlari bilan birgalikda harakatlar to‘g‘risida kelishib oladilar. Kelishuv ikki qismdan: Fransiya ozodligi uchun milliy qo‘zg‘olonning zarurligi va g‘alabadan keyin xalq o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqiga ega bo‘lishi kerak edi.

1943-yil Fransiyada Qarshilikning yagona rahbar organlari tashkil topadi. 1943-yilning may oyida Qarshilikning barcha asosiy tashkilotlari, shu jumladan, Kommunistik Partiya ham, maxfiy profsoyuzlar, burjua-vatanparvar gruppirovkalar – Qarshilik Milliy Ittifoqiga asos soladilar, va u Fransiya hududida Qarshilik harakatining oliy rahbar organi deb tan olindi. Joylarda esa, mahalliy Qarshilik harakatini birlashtiruvchi - ozodlik komitetlari tuzila boshlandi. Qarshilikning barcha qatnashchilari Aljirla joylashgan – milliy ozodlik harakatining Fransuz komitetini tan oldi. Bu komitetni 1943-yilning kuzidan buyon general de Goll yakka o‘zi boshqarib kelardi. De Goll rahbarligi ostida FKNO tuzilib, unga Qarshilik tashkilotining burjua-vatanparvar vakillari, undan keynroq, Kommunistik partiya vakillari a‘zo bo‘lib kiradilar.

Qarshilik harakatiga o‘xshash harakatlar faqat Fransiya uchun emas, balki, G‘arbiy Evropaning boshqa davlatlariga ham xosdir.

Belgiyada, kommunistlar rahbarlik qilgan mustaqillik Fronti, 1943-yilning oxiriga borib, ommaviy xalq qo‘shini – vatanparvar militsiyaning tuzilishiga kirishadi. Belgiya Qarshilik harakatining burjua gruppasi – “Maxfiy armiya” tuzadi, va u muhojir hukumatga bo‘ysunardi hamda Belgiyani ozod qilinayotgan paytda hukumatni egallashga tayyorlik ko‘rardi.

1943-yilning mayida Gollandiyada koipartiyaning tashabbusi bilan Qarshilik Ittifoqi tuzildi. Unga kommunistlar, sotsialistlar va qator buouju gruppirovkalari kiradi. Biroq Ittifoq barcha Qarshilik kuchlarini o‘z atrofiga yig‘a olmaydi.

1943-yilning sentyabr oyida Daniyada Qarshilik tashkilotlari Ozodlik ittifoqini tashkil qiladilar. Bu tashkilot bosqinchilarga qarshi kurashni kuchaytirishga chaqiradi va partizan otryadlari harakatlariga rahbarlik qiluvchi harbiy komissiya tuzadi. Maxfiy armiyaning soni 1943-oxirlariga kelib 25 ming kishidan ortib ketdi.

Norvegiyada vatanparvarlar Kvisling hukumati e‘lon qilgan “ommaviy mehnat safarbarligi” ga qarshi kuchaytiradilar. Qarshilikning harbiy gruppalari bir qator qo‘poruvchilik ishlarini bajaradilar, nemis atom bombasi uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi zavodni portlatib yuboradilar.

Italiyadagi fashizmga qarshi harakatlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Fashistlardan ozod qilingan Janubiy Italiyada fashizmga qarshi partiyaning faoliyat ko‘rsatishiga ruxsat berilgan. Markaziy va Shimoliy Italiyada kompartiya Garibaldi nomidagi qurollangan brigadalar tashkil qilishga kirishib ketadi. 1943-yilning kuzida Shimoliy Italiyaning partizanlari birinchi marta bosqinchilar bilan jangga kiradilar. Ularning bu harakatlari Milliy Ozodlik Komitetlari planlarini korrdinatsiyalashga turtki bo‘lardi.

4.2. Sharqiy va Janubi-sharqiy Yevropa mamlatlaridagi partizanlar harakati.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropaning bosib olingan davlatlarida partizanlik harakati juda keng quloch yoydi. Ba‘zi davlatlarda partizan otryadlari ozodlik armiyalariga qo‘shilib ketdi. Ular bir necha rayonlarni ozod qilishib. U erlarda mehnatkashlarning manfaatlarini himoya qiluvchi ijtimoiy

o'zgarishlar kirituvchi hukumatning halq organlarinin tuza boshlaydilar. shunday qilib, milliy ozodlik uchun kurash oqibatda mehnatkashlarning ijtimoiy ozodligi uchun kurash bilan uyg'unlashib ketadi.

Yugoslaviyada 1942 – yilning noyabr oylarida partizan otryadlari Broz Tito qo'mondonlik qiyotgan Milliy-ozodlik armiyasiga qo'shilib ketadi. Noyabr oyining oxirlariga borib Bixach shaharining ozod bo'lgina rayonlaridan birida Yugoslaviyaning fishistlarga qarish xalq ozodligi harakati vechesining birinchi sessiyasi bo'lib o'tadi.

1943-yilning 29-noyabrida ozod bo'lgina Yaysa shaharchasida Yugoslaviya fashistlarga qarshi xalq ozodlik harakati vechesining tktnchi sessiyasi bo'lib o'tadi. Broz Titoga general unvoni beriladi. Broz Tito boshchilik qilgan Milliy komitet muvaqqat hukumat barcha vazilarin bajararadi. Muhojirlikdagi hukumat barcha huquqlardan mahrum qilinadi, qirol Petr II ga esa urush tamom bo'lmaguncha mamlakatga qaytish ta'qiqlanadi. Vechaning ikkinci sessiyasi Yugoslaviyaning kelgusidagi davlat tuzilishiga asos soladi. Shuning uchun 29-noyabr yangi Yugoslaviya tashkil topgan kun nishonlanadi.

1943-yilning mart oyida albaniyada kommunistik butun Albaniya konferensiyasi bo'lib o'tadi. Unda Albaniya milliy-ozodlik armiyasining tuzish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Partizan otryadlari Janubiy va o'rta Albaniyaning bir necha rayonlarini ozod qildi. U joylarda davlatni milliy-ozodlik ittifoqlari olib borardi. 1943-yilning sentyabr oyida bo'lib o'tgan Milliy – ozodlik frontining ikkinchi konferensiyasida ittifoqlar “alban halqi siyosiy davlatining asosi” deb tan olindi. Ular ishlab chiqarish korxonalarini qo'l ostilarigi oldilar, erni dehqonlarga bo'lib berib, erlarga ishlov berish uchun jamoalar tuza boshlaydilar. alban xalqining milliy ozodlik uchun kurashi feodal va kpitalistik tuzumga qarshi kurash tusini ola boshladi. Germaniyaning engilishi yaqinlashgan sayin, alba burjua-millatchilik gruppировkalarining faoliyatlari tezlasha bordi. 1942-yilining oxirlariga borib ular “Balli kombetar” (Milliy fron), 1943-yilning kuzida – “Legalitet” (“Oshkoralik”) gruppasini tuzaadi. Bu tashkilotlar kommunistlarga qarshi edilar.

Gretsiyada milliy-ozodlik armiyasi (ELAS) mamlakat butun territoriyasida ish olib borrar, rayonlarni ozod qilardi. U joylarda xalq-demokratik komitetlari tuzardi.

Polshada polyak ishchi partiyasi va Lyudovoy Gvardiyasi otryadlari bosqinchilarga kurashlarni kuchaytirgan bo'lsa, Krayovoy Armiyasi esa muhojir hukumat buyruqlariga amal qilardi. 1943-yilning yanvar oyida PPR Markaziy Komiteti muhojir hukumat ga ochiq xat bilan murojaat qilib, bosqinchilarga birlashib kurashishni taklif qiladi. murojaat javobsiz qolgan bo'lsada, qurolli janglar keng ravishda avj ola boshlaydi.

Polyak vatanparvarilarining Varshava gettosidagi qo'zg'olon zng katta harbiy janglardan biri bo'ldi. Bosqinchilar bu qo'zg'olonga yahudiy xalqini haydab chiqqan edilar. Qo'zg'olon 1943-yilning aprel oyida bosqinchilarning getto aholisini o'lim lagerlariga olib ketshiga qarshi ko'tarilgan edi. Qo'zg'olonchilar uncha yaxshi qurollanmagan bo'lsalarda, o'zlaridan o'n chandon yaxshi qurollangan nemis-fashistlar bilan ikki oyga yaqin janglar olib boradilar. 1943- yilning iyun oylariga kelibgina, bosqinchilar qo'zg'olonne bosadilar. Ular 76 minga yaqin odamni o'ldirdilar yoki o'lim lagerlariga jo'natib yuboradilar. Nemislra tomonidan getto butunicha yo'q qilib yuboriladi va Varshavaning katta qismiga o't qo'yib yuboradilar.

Urush tugashi yaqinlashgan sayin Polshada sinfiy qarama-qarshiliklar ham kuchaya bordi. 1943-yilning 1-martida PPR Markaziy Komiteti “Biz nima uchun kurashyapmiz” deklaratsiyasini chop ettiradi. Unda rushdan keyingi Polshadagi ijtimoiy o'zgarishlar yaqqol ko'rsatilgan: yirik korxona va banklarni umumlashtirish, pomeshiklar erlarini dehqon va batraklarga bo'lib berish, davlatningdemokratik organlarini tuzish, Sovet Ittifoqi bilan do'stona aloqalarni tiklashdan iborat bo'lgan. Bu deklaratsiya polyak xalqi ilg'or kuchlari harakatining programmi bo'lib qoldi.

4.3. Fashistik blokda davlatlarda fashizmga qarshi kurash.

Urushda tub burilish bo'layotgan yillarda fashistik blok davlatlarida ham fashizmga qarshi kurash avj ola boshladi. Bu kurshaning keng quloqch yoygannini birgina Bolgariya misolida ham ko'rishimiz mumkin. 1943-yilning bahorida kommunistlar boshchilik qilayotgan partizan otryadlari Bolgariya milliy-ozodlik armiyasiga qo'shiladi. Kuzga borib esa kommunistlar tashabbusi bilan Vatan fronti Milliy komiteti tashkil etiladi. Komitetga Bolgariya ishchi partiyasi, Bolgariya dehqonchilik milliy ittifoqi arboblari, so'lsotsial-demokratlar va boshqa demokratik arboblara'zo bo'ladilar. Joylarda Vatan fronti komitetlari paydo bo'la boshlaydi.

Ruminiya va Vengriyada kommunistlar va boshqa vatanparvar va fashistlarga qarshi guruhlar a'zolari yashirin aloqalar o'rnatiladi.

Finlyandiya burjua doiralari ichida "tinch oppozitsiya" vujudga keladi. Uning rahbarlari – U.Kekonen, Yu.Paasikivi va boshqalar Germaniya bilan aloqalarni uzib, Finlyandiyaning urushdan chiqib ketishi to'g'risida fikrlarini bayon qilardilar.

Germaniyada gestapo Suuls-Boyzen va Uriganing fashistlarga qarshi gruppasini topib. Yo'otishga erishadi. Ularning ko'plari o'ldirib yuboriladi. Kommunistlar yanada yangi maxfiy gruppalarni tashkil qilishardi. Ulra ichida eng yirig Berlinda tashkil topgan A.Zefkov gruppasi edi. 1943-yilning boshlarida Germaniyada Zefkov boshchiligidagi yangi operativ gruppaa faoliyat – KPG faoliyat ko'rsata boshladi. 1943-yilning kuzida 70ta lager (Germaniyaga haydab kelingan chet ellik ishchilar) bilan aloqa o'rnatilgan Xalqaro fashistlarga qarshi komitet tuziladi. Ular orasida juda ham ko'p sovet grajdanlari bo'lib, o'limdan ham qo'rqmay harbiy ishlab chiqarishlarda zimdan qarshilik ko'rsatishardi. Fashistlarga qarshi kurashning rivojlanishid SSSR da tashkil qilingan "Ozod Germaniya" harakati juda muhim rol o'ynadi.

1943-yilning yozida Kursk jangalari paytida Moskvada KPG Markaziy Komiteti tashabbusi bilan "Ozod Germaniya" Milliy komiteti tomonidan saylangan nemis nemis antifashist harbiy asirlari, muhojirlari yig'ilishi bo'ldi. Komitet Gitelni yiqitib tashlash, tinchlik tuzish, ozod mustaqil Germaniyani tashkil qilish to'g'risida Manifest qabul qildi. Nemis –fashistlarning Stalingrad va Kursk jangalaridagi mag'lubitlaridan keyin, aholi burjua qatlamlari orasida ham fashistlarga qarshilar ko'paya boshlaydi. Ofitser va amaldorlar orasida o'zaro til biriktirib hokimiyatni olish va urushni tamomlamoqchi bo'ladilar. Leypsigning sobiq ober-burgomistri, baholashni nazorat qiluvchi komissar K.Gerdeler va iste'fodagi general – polkovnik L.Beklar rahbarlik qiladigan o'ng qanot Angli va AQSH bilan tinchlik slhi tuzib, SSSR bilan urushni davom ettirish taklifi bilan chiqadilar. Polkovnik K.Shtauffenberg rahbarligidagi chap qanot esa, butunicha fashist rejimini yo'q qilib, barcha frontlarda tinchlik tuzish, Germaniyada demokratik respublika tuzish kera deb hisoblaydi.

4.4. Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlarida ozodlik harakatlari.

Yaponiya tomonidan bosib olingan Osiyo davlatlari milliy-ozodlik harakatlarida yangi qadam qo'yadilar.

Xitoyda kompartiya boshchiligidagi revolyusion kuchlar ozod qilingan rayonlarni juda mustahkam ushlab turardilar. Bular ikkita revolyusion armiyalar bulgan 8-armiya va Yangi 4-armiyalarga asoa bo'lib xizmat qildilar. 1944-yilning yoziga kelib Xitoyda 95 mln.aholisi bo'lgan 19 ta ozodqilingan rayonlar mavjud edi.

Hindixitoyda kompartiya va Vetnamda mustaqillik uchun kurashayotganlar Ligasi boshchilik qilayotgan partizan otryadlari soni ortaboshladi. 1943-yilning oxirlariga borib Vetnam shimolining juda ko'p rayonlarini nazorat qilar edilar. 1944-yili dekabr oyida partizan gruppalari negizida birinchi muntazam ozodlik armiyasi otryadlari tuzildi.

Malayda kompartiya “uch yulduz harakati” vatanparvarlik tashkiloti tashkil qiladi. tashkilotning nomi Malayning uchta asosiy milliy gruppalar: malaylar, hindular va xitoylar nomidan kelib chiqib shunday nomlandi. 1942-yilning oxirlariga kelib kommunistlar tashabbusi bilan Malay xalqlarining yaponlarga qarshi yagona armiyasi tuziladi. Bu tashkilot ommaviy ijtimoiy–siyosiy tashkilot bo‘lgan Yaponlarga qarshi Ittifoqqa suyanib ish ko‘rar edi. Malayning tog‘li va o‘rmon erlarida ozod qilingan rayonlarini yaponlarga qarshi armiya nazorat qilib turardi.

Birma va Indoneziyada yapoe bosqinchilari qo‘l ostidagi mahalliy harbiy qismlarda vatanparvarlik holatlari keng tarqala boshladi. 1943-yili “Birma mustaqillik Armiya”si qo‘mondoni Aun San kommunistlar etakchilik qilayotgan Sarshilik harakati gruppasi bilan aloqa bog‘laydi. Keyinroq esa, Aun San Birma xalqining to‘la ozodligini ta‘minlash maqsadida maxfiy ravishda “Xalq Ozodligi antifashistik Ligasi”ga asos soladi. Boshqa vatanparvar kuchlar kabi kommunistlar ham ushbu ligaga a‘zo bo‘ladilar.

Yovuz jazolardan azob chekib holdan toygan Indonziya Kommunistik partiyasi Yava va Sumatra orollarida Qarshilikning bir nechta kichkina gruppalarinigina tashkillashtira oladi. Xalq o‘rtasida o‘ziga yarasha obro‘ topgan Sukarno etakchiligidagi milliy-ozodlik harakati “Xalq ozodligi Ligasi” bilan birgalikda ish olib boradi.

XULOSA

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini e‘lon qilgach jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotining barcha jabhalarida keng o‘zgarishlar davrini boshlab berdi. Bu jarayon intellektual qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolarni ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Chunki sobiq ittifoq tarixshunosligi tomonidan ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan mavzular ma‘naviy jihatdan yaroqsiz holda ekanligi ikkinchidan esa tarixni o‘rganishdagi ko‘pgina masalalarni tarixni “qora dog”lari sifatida talqin qilinishi mustaqillikning ilk kunlaridanoq qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalaga aylandi.

O‘zbekiston istiqlolga erishgandan so‘ng jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotining barcha jabhalarida keng o‘zgarishlar davri boshlandi. Bu jarayon intellektual sohada ham o‘z aksini topdi.

Eng asosiy ijtimoiy gumanitar fan hisoblangan tarix fani oldiga hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolarni ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Oqibatda sovet tarixshunosligi nuqtai nazaridan o‘rganilgan mavzular qaytadan ilmiy tadqiqot sifatida o‘rganila boshlandi.

Bundan tashqari tarixning “oq dog‘lari” sifatida o‘rganilmagan mavzularni tadqiq qilish imkoniyati qo‘lga kiritildi. “Dunyo haritasida yangi mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi, ular hozirgi til bilan aytganda sotsialistik o‘tmishga ega bo‘lgan o‘z siyosiy mustaqilligini tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash yo‘liga qadam qo‘ydi. Ular dunyodagi boshqa mamalakatlar orasida o‘z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda”

Ikkinchi jahon urushi arafasidagi 10 yillik davlatlararo, xalqaro munosabatlarda ziddiyatlar keskinlashuvi xarakteriga ega. 1929 – 1933 yillardagi jaho iqtisodiy tanazuli birinchi jahon urushda g‘alaba qozongan va mag‘lub davlatlar munosabatlari yomonlahuviga olib keldi.

Tanazul oxirida Yevropa kuchlari hamkorligida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Versal` sistemasining asosiy qismlari talofatga uchradi. Germaniyaning Reyn hududida suverintetiva o‘z iqtisodi qayta tiklandi. G‘arbiy Yevropada Fransiya pozitsiyasi zaiflashdi. Shu bilan birga AQSHning mavzei Yevropa da kuchaydi.

Bu yillarda buyuj xukumatlar orasida dengiz qurollanishiraqobati kuchaydi. 1930 yilning yanvar – aprel oylarida Londonda xalqaro konferinsiya tashkil etilib, unda dengiz qurollanishi masalasi ko‘rildi va AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya davlatlari vakillari qatnashdi. Bu

konferinsiyada 1912 – 1922 yillardaig Vashington konferinsiyasi masalalari o`rganildi. Mohiyatiga ko`ra AQSH, Buyuk Britaniya va Yaponiya harbiy dengiz kuchlari buyida teng huquqqa egaligini e`tirof qilindi.

Fransuz diplomatiyasi 30 – yillar boshida Germaniya bilan yaqinlashishga o`rinib ko`rdi, lekin bu urinish mufaqqiysiz tugadi. Germaniya Versal` shartnomalarini “bajarib bo`lib”, rivojlanish siyosatini olib borar edi.

1932 yil 2 fevralda Jenevada o`tazilgan qo`rollanishni to`xtatish bo`yicha xalqaro konferensiya Germaniya barcha mamlakatlar singari xavfsizlik va mustaqillik huquqlariga ega bo`ldi. Germaniyaning harbiy imkoniyatlarining tiklanishi jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi.

Jahon iqtisodiy tanazzuli yillarida Tinch okean va Uzoq Sharq hukumatlari orasida ziddiyatlar kuchayib ketdi.

1931 – 32 yillarda Yaponiya, Shimoliy –sharqiy Xitoy (Manjuriyatga) bosqin uyushtirildi. Jahonning buyuk davlatlari va Millatlar Ligasi, bu agressiyasiga qarshi kurash harakat qilmadi. 1933 yilda Yaponiya Millatlar ligasi tarkibidan chiqdi. Shundan qilib Yaponiya agressiyasi natijasida Xitoy va Uzoq Sharqda xavfli urush uchoqlari vujudga keldi.

1933 yil oktabrda Germaniya Milliy Ligasi tarkibidan ajralib chiqdi. 1933 yilda Germaniyada umumiy harbiy tayyorgarlik avj oldi. 1933 yil iyunida Germaniya Dengiz qurollarini leganizatsiya uchun ingliz – german shartnomasi tuzildi. Germaniyaning bunday siyosati jahonnong qudratli hukumatlari tomonidan qarshilikka uchramadi.

Aksincha AQSH va Angliyaning buyuk monopoliyalari Germaniyaning harbiy iqtisodiyotining potensiyalining kuchayishi uchun yordam berdilar.

Germaniyaning harbiy iqtisodiyining potensiyalining oshishiga nemis aholisidan iborat Saor viloyatining sanoati kuchayib olishi sabab bo`ldi. 1935 yil yanvarda o`tkazilgan plebisi natijasi edi.

Siyosatdagi parokandalik va aralshmaslik natijasida 1933 yildan boshlab Germaniya, Italiya va Yaponiya ochiq ekspansiya siyosatiga o`tdi.

1936 yilning bahorida Italiya Ifiopiyan bosib oldi. 1936 yil 7 martda german qo`shinlari Reynning demilitarizatsiyalashgan hududiga bostirib kirdi. Bunday yurish Versal` shartnomasini imzolagan buyuk hukumatlar qarshiligiga uchramadi. Germaniya va Italiya Isaniyadagi fuqarolar urushiga (1936 –1939 y) faol aralashib ketishdi, bu esa respublikaning ag`darilishi va frank fashist rejimini o`rnatilishiga olib keldi.

1937 yilning iyulida Yaponiya bosqinining Xitiyga yangi bosqichi boshlandi. Yaponlar Pekin, Tyan`szin va Xitoyning Shimoliy qismi markazlarini bosib oldi. 1937 yil avgustda yapon qo`shinlari Xitoyning eng katta Shanxay shahrini qo`lga kiritdi. Yapon qo`shinlari Markaziy Xitoyni qo`lga kiritish uchun kurash olib borar edi.

Agressiv hukumatlarning yaqinlashuvi “Berlin – Tokeo – Rim”, uchburchagini hosil qildi. 1937 yildagi “Antikominter” paketi imzolandi.

Agressiv xukumatlar boloki tashkil etilgandan keyin fashist Germaniyasi agressiyasining yangi bosqichi boshlandi. 1938 yil 12 mart german qo`shinlari Avstriyaga bostirib kirib uni okkupatsiya qildi. Ertasi kuni Avstriyaning Germaniyaga qo`shilishini e`lon qildi. 1938 – yilning aprelida Angliya, AQSH va Fransiya davlatlari Venada diplomatik aloqalarni lekvidasuya qilib, anshlyusni (ittifoq ma`nosida berilgan) tan olishdi.

Fashistlar agressiyasi zarba berish xalqaro munosabatlarning asosiylaridan biriga aylandi. Lekin o`sha davrning buyuk hukumatlari, jumladan sobiq SSSR ham fashist agressiyasiga qarshi jamoa birlashuvi mexanizmini ishlab chiqa olmadi. Jahonning etakchi mamlakatlarining qator bitimlari va hakkorliklari konkret natija bermadi. Imzolangan shartnoma, bitm va paktlar bajarilmadi.

Bularning natijasida agressiv davlatlar ekspansional harakatlari kuchyib bordi.

Avstriya va Germaniya anshlyusdan keyin Chexoslovakiyani bosib olishga kirishdilar. Gitler asosiy aholisi nemislardan iborat Sudet oblastini topshirish haqida talab qo'ydi. Angliya, AQSH va Fransiya hukumatlari Chexoslovakiyaga hech qanday yordam bermasdan, aksincha Gitlarning talabini bajarish uchun xissa qo'shdilar.

Sobiq SSSR Chexoslovakiyaga yordam qo'lini cho'zishni e'lon qildi. Lekin Chexoslovakiya hukumati sobiq SSSR dan madad so'ramagan edi. G'arbiy hukumatlar ta'siri natijasida Chexoslovakiya hukumati Germaniya ultimatumini talabini bajarish uchun qaror qabul qildi.

1938 – yil 29 – senabrda Myunxenda Chembren, Delad'e, Mussalini va Gitler bir necha soat ichida Chexoslovakiya taqdirini hal qildi. Chexoslovakiya 10 kun dadavomida Sudet oblastini topshirishi lozim edi. Chexoslovakiya hududini 1/5 qismi va j aholisini yo'qotdi. Chexoslovakiya Menxens bitimini qabul qildi.

1938 – yildagi Myunxen bitimi G'arbiy Yevropaning Germaniya bilan kelib chiqqan ziddiyatlarini yumshatishga qaratilgan edi. Bu vaqtda Germaniya sanoat mahsulot hajmi jihatdan Angliya va Fransiyadan o'zib ketdi. Germaniya tez orada G'arbiy Yevropada katta harbiy kuch qudratga ega davlatga aylandi.

1939 – yil 15 – martda german qo'shinlari Myunxen bitimini buzib, Chexiya va Mariviyani Okkupasiya qildi. Bundan 3 kun oldin Gitler agenturasi Slovakiyani suverenitetini e'lon qilgan edi. Angliya, Fransiya va AQSH Chexoslovakiyani himoya qilishni hatto o'ylab ham ko'rmagan edilar. Bu mamlakatlar Gitler Sharqqa qarab siljiydi deb hisoblashardi.

Bu orada agressiya aktlari kundan kunga oshib borardi. 1939 – yil 21 – martga gitlerchilar Polshadan Dansiyaga (Gdansk) shahrini topshirishni talab qiladilar. Ertasi kuni German qo'shinlari Litvaning Klaypedsk (Mekeeksk) viloyatiga bostirib kiradilar. Aprel oyida Italiya Albaniyaga bostirib kirib, okkupasiya qildi.

Angliya, Fransiya va AQSH, Germaniya, Italiya va Yaponiya ekspansiyalarining xavfini tushunib eta boshladilar.

1939 – yil 22 – mart Fransiya va Angliya, uchunchi hukumat tomonidan mabodo bosqin uyushtirilsa, bir – birlariga madad berishga kelishib olishdi.

Amerika hukumati esa 1939 – yilning yozidan boshlab mahsulot hom ashyosi va harbiy qurollar etkazib bera boshladi.

G'arbiy hukumatlarning maqsadi Germaniyani sobiq SSSR ga bostirib kirish uchun turtki berish edi. 1939 – yilning iyuldayoq ingliz diplomatiyasi baxsli masalalarni hal qilish uchun Germaniya bilan yashirin aloqa olib bora boshladi.

1939 – yilning yozida Moskvadagi sobiq SSSR, Angliya, Fransiya g'arbiy aloqalari konkret natijalarni bermagan.

Yevropada urush har bir kunda boshlanishi mumkin edi. Uzoq Sharqda Sovetlar armiyasi yapon qo'shinlari bilan jang olib borar edi. 1939 – yil mayda Yaponiya MNR ga bostirib kirdi.

Sovet va Mongol bitimiga binoan sovet armiyasi mongol xalq armiyasi bilan yaponiya qo'shinlariga qarshi kurashdi. Sobiq SSSR ikki frontda urush olib borar edi.

Bundan tashqari sobiq SSSR Germaniyaning bosqin uyushtirmaslik haqidagi bitimini imzolashga qaror qabul qildi. Bu bitim 1939 – yil 23 – avgustda imzolandi. Germaniya va sobiq SSSR shartnomasiga ko'ra Sharqiy Yevropadagi davlat manfaatlari sohalari bo'lib olingan edi.

Bunday kelishuvni baholash tarixcilar orasida ko'plab baxs va diskussiyalarga sabab bo'ldi.

1939 – yilning yozida Germaniya urushga tayyorgarlik ko'rishni tugatdi. Myunxen tajribasi va chexoslovakiya bosqiniga asoslanib Gitler polsha ittifoqchilari Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan Germaniyaga qarshi urush e'lon qilinmasligi yoki har qanday holatda ham ular Polshaga yordam bermaydi deb hisoblardi.

1939 – yilning 1- sentabrda Germaniya Polshaga bostirib kirdi, 1939 – yil 3 – sentabrda Buyuk Briytaniya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e`lon qildi. Ikkinchi jahon urushi boshlandi.

Italiya “urushda qatnashmaydigan ittifoqchi” pozisiyani egalladi. AQSH o`zini har sohada betaraf deb e`lon qildi.

Hajm va texnik jihatdan Ustunlikka ega bo`lgan nemis qo`shinlariga Polsha armiyasi qarshilik ko`rsata olmadi. 17 – 18 – sentabrda Polsha hukumati va harbiy boshqaruvi Ruminiya hududiga ko`chib o`tdi. 28 – sentabrda nemis qo`shinlari Varshavani egallab, oktabr boshlarida Polsha qo`shinlarini butunlay tor – mor etdi harbiy harakatlar to`xtatildi, Polsha mag`lubiyatga uchradi.

Fransiya va Angliya Germaniyaga urush e`lon qilsada, hech qanday harbiy harakatlar olib bormadi. Buning oqibatida G`arbiy frontda “g`alati urush” olib borilar edi.

1939 – yilning 17 – sentabrda sirli protocol sovet – german bitimida qabul qilingan bo`lib, unga ko`ra sobiq SSSR armiyasi G`arbiy Ukraina va G`arbiy Belorusiyaga olib o`tili. Sovet qo`shinlari taxminan “Kerzon liniyasida” to`xtashdi, bu 1919 – yilda Polshaning sharqiy chegarasi sifatida aniqlangan edi. 1939 – yilning 28 – sentabrda sobiq SSSR va Germaniya tomonidan tuzilgan “Do`stlik va chegara” shartnomasiga ko`ra sovet qo`shinlari va nemis qo`shinlari chegaralari San daryosi va G`arbiy Bug`da belgilangan edi. Polsha yerlari Germaniya Okkupasiyasida qolib, Ukraina va Belorussiya yerlari sobiq SSSR ga tegishli edi.

Sovet – German shartnomasi tuzilishi, 1939 – 40 yillardagi Sovet – fin urushi, 1940 – yilda sobiq SSSR ni Millatlar Rigasidan chiqarilishi, Angliya va Fransiya pozisiyasi, AQSH ning betarafligi – antiharbiy harakatlarga talofat etkazib, xalqaro vaziyatni keskinlashtirdi.

1940 – yil aprelda Daniya va Norvegiya okkupasiya qilindi. 10 – maydan 22 – iyungacha Golllandiya, Belgiya va Fransiya okkupasiyaga aylantirildi. Angliya, Fransiya va Italiya urush e`lon qildi. Parij “ochiq shahar” deb e`lon qilinib, nemislarga jangsiz topshirildi. Fransiyaning o`zi ikki zonaga: okkupasiya qilingan (shimoliy va markaziy qismlar) va (janubiy qism Marshal Petena rejimi) okkupasiyalarga bo`lindi. Buyuk Britaniya siyosatida N.Chembrlen o`rniga Chinston Cherchil boshchiligidagi koamision hukumat kelib, Buyuk Britaniyani nemis qo`shinlaridan himoya oboronasi tashkil qildi.

Angliyani varvarlik yo`li, bombardimon qilish sindirish rejasi amalga oshmadi. Britaniya orollariga bostirib kirish rejasidan voz kechildi.

1939 – yildayoq AQSH betaraflik qonunini ishlab chiqib, jang qiluvchi mamlakatlar qurol va harbiy materiallar sotib olish uchun imkoniyat yaratdi.

1941 – yilning 11 – martida AQSH dan lend – lizi qonuni, ya`ni Amerika uchun muhim bo`lgan davlatlarga qarzga va ijaraga qurol – yarog` etkazib berishdan iborat edi. AQSH ning bu qonuni Angliya uchun juda foydali bo`ldi va juda katta madad oldi.

1940 – yilning sentabrda Germaniya, Italiya va Yaponiyaning harbiy iqtisodiy ittifoqi, siyosiy uchlik pakti imzolandi.

Bu vaqtda harbiy harakatlar Afrika va O`rta Yer dengizida olib borilar edi. Shimoliy sharqiy Afrikada Italiyaning Britaniya armiyasi tomonidan engilishi bilan Germaniya Liviyaga qo`shinlarini tashladi. Nemis qo`shinlari italyan qo`shinlari bilan birgalikda britaniyaliklarni Egipit chegaralarigacha surib tashladi. 1941 – yilning aprelda Germaniya Janubi – sharqiy Yevropada o`z nazoratini o`rtandi. Ruminiya, Vengriya, Yugaslaviya va Germaniya bosib olindi. Bolgariya nemis qo`shinlari kiritilib, Uchlik pakti qo`shib olindi. Shunday qilib SSSR ni bosib olish uyushmalari tuzildi, 1941 – yil 22 – iyunda Germaniya tuzilgan tinchlik shartnomasini buzib, urush e`lon qilmasdan sobiq SSSR ga bostirib kirdi.

Qurolli kuchlardagi parokandalik, armiya ichki sostavidagi ommaviy repressiya, Germaniya bilan tuzilgan shartnomaning mavjudligi uchun g`aflatda qolish natijasida, urushning dastlabki

yillarida sobiq SSSR mag'lubiyat chegarasida turar edi. Lekin katta ichki imkoniyatlardan, resurslardan foydalangan holda sobiq SSSR urushda qattiq zarbalar bera boshladi. Butun urush davomida sovet – german fronti asosiy hal qiluvchi kurashga aylandi. Qator og'ir janglar, jumladan, Moskva atrofidagi jang, Leningrad qamalining ochilishi, Stalingrad, Krus janglarida nemis qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Bu janglarda nemis harbiy mashinalari tor – mor etilib, urushning taqdiri hal bo'la boshladi.

Germaniyaning sobiq SSSR ga bostirib kirishdan keyin antigitler koalizasiyasi tuzila boshladi. Bu koalizasiya tarkibiga sobiq SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya kirib 1942 – yilda to'liq tashkil etildi.

Nemis qo'shinlarini 1943 – yil yozidagi Kurs janggida tor – mor etilishi va Italiya kopitulyasiyasi, ya'ni ingliz- amerika qo'shinlari tomonidan Sisiliya va Appenin yarim orollari bosib olinishi fashistmilitar bloking mag'lubiyatiga asos bo'ldi. Asosiy harbiy harakatlar Yevropa kontinentida Bo'lsada, Afrika va Tinch okeanida ham urush qizib ketdi. 1941 – yil 7 dekabrda yapon aviasiya AQSH ning Pyorl – Xarbor (Gavvaya orollarida joylashgan) harbiy dengiz bazasini bombardimon qildi. Janubiy va G'arbiy Xitoy va Hindiston ishg'ol etildi.

Lekin 1942 – yilning may – iyun oylarida AQSH, yapon qo'shinlariga qattiq zarbalar berdi. Yaponiya harbiy dengiz kuchlari qudrati tor – mor etilib, Tinch okeani soxillarida himoyaga o'tdi.

Nemis qo'shinlarining asosiy kuchi sovet – german flotida ekanligidan, 1942 – yilda Britaniya Afrikaga yurish qildi. Yaqin Sharq mamlakatlaridagi nemislar tazyiqi likvidasiya qilindi. 1943 – yil mayda Shimoliy Afrikadagi italiyan – nemis qo'shinlari batomom surib chiqarildi.

1943 – yil 28 – noyabr 1 – dekabrda Texron konferensiyasi va AQSH, sobiq SSSR va angliya hukumat boshliqlari ikkinchi frontni 1944 – yil mayda G'arbiy Yevropada Fransiyada ochishni mo'ljallashdi. Lekin ittifoqchilarning qo'shinlarini kuchirish cho'zilib ketdi. 1944 – yilning birinchi yarmida sovet qo'shinlari qator harbiy operasiyalar uyushtirishdi. Ikkinchi frontni ingliz – amerika ittifoqchi qo'shinlari Normandiyada (Fransiyada) o'mashib olib, sharqqa siljiy boshladilar. 1944 – yilning oxirida ittifoqchilar nemis qo'shinlarini Fransiya. Belgiya va Markaziy Italiyadan quvib chiqarishdi.

1944 – yilning ikkinchi yarmi va 1945 – yilning boshlarida Janubiy – Sharqiy va Markaziy Yevropa davlatlari sovet qo'shinlari tomonidan ozod etildi. Germaniyaning ittifoqchilari Ruminiya, Bolgariya, Finlyandiya, Vengriya davlatlari izolyasiya qilindi. 1945 – yilning fevralda harbiy harakatlar Germaniya hududlariga kuchib o'tdi.

1945 – yil 4 – 11 fevralda Qrimda (Yalta) Konferinsiyasida sobiq SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya hukumati rahbarlari qatnashdi. Konferensiyada ittifoqchilarning keyingi harbiy harakatlari, Germaniya kapitulyasiyasidan keyin nazorat qilish shakllari va usullariga oid masalalar ko'rib chiqildi. Sobiq SSSR 2 – 3 oy muddatdan keyin, ya'ni Germaniya kapitulyasiyasidan keyin Yaponiya bialn urush olish majburiyatini oldi. Uchta davlat kelishuviga ko'ra 1945 – yil 25 – aprelda San – Fransiskoda ochilgan konferinsiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ni tashkil topishiga asos bo'ldi. Umumbashariy tinchlikni qo'llab – quvvatlash vazifasi Xavfsizlik Kengashiga yuklatildi. 1945 – yil aprelda Sovet qo'shinlari Berlinda hal qiluvchi yurishlar boshladi. G'arbdan ingliz- amerika qo'shinlari kirib bordi. Ittifoqchilar qo'shini 1945 – yil 25 – aprelda Elba daryosi yonida Torgau shahrida uchrashishdi. 1945 – yil 29 – aprelda Shimoliy Italiyadagi nemis qo'shinlarini kaputulisiya qilindi, "Sao Respublikasi" butunlay yo'q qilindi, Mussalini partizanlar tomonidan otib tashlandi. Germaniya poytaxti sovet qo'shinlari o'rab olib, 2 – may kuni shturm bilan butunlay egalladilar. 1945 – yil 8 – mayda german hukumati Germaniya kaputulyasiya qilish aktini imzoladi. German qo'shinlarining bir qismi Praga hududlarida harbiy harakatni davom ettirar edi, Sovet qo'shinlarining

qattiq zarbalaridan keyin ular butunlay tor – mor etildi. 1945 – yil 9 – mayda Praga ozod etildi. Yevropadagi harbiy harakatlar to'xtatildi.

1945 – yil 17 – iyunda, 2 – avgustda Berlin yaqinida Postdam shahrida uchta davlat sobiq SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya boshliqlari konferensiyasi bo'lib o'tdi. Postdam konferensiyasi urushdan keyin holatiga oid masala markaziy o'rin egalladi. ittifoqchilar Germaniyani to'liq qurollansizlantirib va dekilitarizatsiya qilish, fashistlar partiyasini yo'qotish, harbiy jinoyat boshliqlarini sudga berish, Germaniyada so'z, nashr, din erkinligi, erkin kasaba uyushmalari, demokratik partiyalar faoliyatini tashkil qilishni kelishib oldilar.

1945 – yilning martida ingliz- amerika qo'shinlari, Yaponiyaga qarshi Tinch okeani sohillarida va Osiyoning Janubiy – Sharqida harbiy harakatlar olib borishib muvafaqqiyatga erishdilar. Sobiq SSSR o'z majburiyatini bajarish uchun 1945 – yilning 9 – avgustida Yaponiyaga qarshi urush olib bordi. Sovet qo'shinlari bilan MXR harbiy kuchlari hamkorlikda Kvantun armiyasi tor – mor etildi. Shimoliy – sharqiy Xitoy, Shimoliy Koreya, Janubiy Sararin va Kuril orollari Yapon qo'shinlaridan tozalandi.

6 – 9 avgustda Amerika avyatsiyasi Yaponiyaning xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasi tashladi. Yadro qurolini ishlatish uchun zaruriyat yo'q edi. Shunday ham Yapon armiyasi mag'lubiyatga uchragan edi.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixida eng og'ir va qonli urush edi. U XX asr tarixida to'ntarilish bosqichi hisoblanadi. Urushning asosiy natijasi fashizm ustidan qozonilgan g'alaba edi. Urush davomida kolonial sistema inqiroziga yuz tutdi. Xalqaro maydonda sobiq SSSR ning mavqei ko'tarilib ketdi. Kuchli g'abiy hukumatlaridan faqat AQSH urushdan juda kuchayib ketdi. Ikkinchi jahon urushi natijasida xalqaro siyosiy maydonda kuchlar ham tengligi jiddiy o'zgarish ketdi.

Ikkinchi jahon urushining asosiy yakuni ikki urush o'chog'i - Yevropada Germaniya va Osiyoda Yaponiyaning tor-mor qilinishi bo'ldi. Salkam o'n yil davomida butun dunyoda tinchlikka xavf solgan va tarixdagi eng qonli urushga sabab bo'lgan ikki tuzum - fashizm va militarizm yakson etildi. Bu davlatlar va ular ittifoqchilarining tor-mor qilinishi kapitalistik davlatlar tuzumi mavqeining zaiflashganini anglatdi.

Urush mustamlakalardagi milliy-ozodlik harakatlarining faollashishiga olib keldi. Bu mamlakatlarning aksariyatida urush davridayoq xalq inqiloblari boshlanib, ular metropoliyalarning zaiflashganidan foydalanib hokimiyatni qo'lga oldilar, siyosiy partiyalar tuzib, mustaqil davlatlar tashkil qildilar. Fashizmning tor-mor keltirishi irqchilik va natsizmga chek qo'yilgani, mustamlakachilikning barham topganini anglatardi. Buni BMT Nizomi va boshqa qator xalqaro hujjatlar ham tasdiqladi. Mustamlakachilik va imperializmning qulashi aniq bo'lib, dunyoning taqdiri endi ko'p jihatdan ularning qaysi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot yo'lini tanlashlariga bog'liq bo'lib qoldi.

Fashizm butun dunyoda ulkan fashistlarga qarshi harakat to'liqlinini paydo qildi va u turli jihatlariga ega bo'lgan demokratik harakatga aylandi. Aholining turli tabaqalari, turli tashkilot va siyosiy partiyalarni o'z ichiga olgan bu harakat Gitler Germaniyasining tor-mor keltirilishida muhim o'rin tutdi. Bu vatanparvar, demokratik, fashizm va militarizmga qarshi harakat edi. Fashist bosqinchilari bilan hamkorlik qilgan barcha reaksion partiyalar keng omma ko'zi o'ngida obro'sizlandilar. Demokratik va milliy harakatlarning yangi darajasi, dunyoni va dunyo miqyosidagi muammolarni demokratlashtirish uchun kurash borasidagi yangi g'oyalarni aks ettirgan yangi siyosiy partiyalar dunyoning urushdan keyingi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdilar.

Ikkinchi jahon urushi 6 yil davom etdi. Bu urush dunyoning 61 davlatini o'z domiga tortdi. Ularda dunyo aholisining 80 foizi yashar edi. Jangovar harakatlar 40 ta mamlakat hududida bo'lib o'tdi. Armiya saflariga jami 110 mln kishi safarbar etildi. Urush yillari 55 mln kishi halok bo'ldi, 12

mln dan ortiq odam o'lim lagerlarida o'ldirildi, 95 mln kishi nogiron bo'lib qoldi. Ikkinchi jahon urushi tarixda eng dahshatli, eng ko'p talafot va katta vayrongarchilik keltirgan urush sifatida iz qoldirdi.

Chunonchi, maxsus adabiyotlarda qayd etilishicha, bu urushda 65—67 mln kishi halok bo'lgan. Ularning yarmi tinch aholi edi. Vayrongarchilikdan ko'rilgan zarar va urush xarajati birgalikda 4 trillion dollarni tashkil etdi. Olovli to'fon ulkan kengliklar uzra yelib o'tdi, Shimolda Yangi Yer va Alyaska sohillariga, G'arbda Amerikaning Atlantika qirg'oqlariga, Sharqda Kuril va Gavaya orollariga, Janubda Misr, Hindiston va Avstraliya chegaralariga qadar yetdi. Fashistlar va ularning gumashtalari nayrangining natijalari shunday bo'ldi. Fojianing oldini olish imkoni bo'lmadi. Nega? Javoblar turlicha bo'lishi mumkin. Ammo bitta sababni hamma yakdil tan oladi. Dunyo yagona va davlatlar o'zlarini nechog'li qudratli hisoblashmasin, ularning o'zaro bog'liqligi uzilmasdir. O'z xavfsizligini boshqalarning xavfsizligi hisobiga qurishga uringanlar adashadi. 1939-yilda shunday ish tutmoqchi bo'lgan ayrim davlatlarning fojiali qismati buning yorqin isbotidir. Ayniqsa, bugungi kunda o'z xavfsizligini boshqalarning xavfsizligi hisobiga qurib bo'lmaydi. Ikkinchi jahon urushining bosh sabog'i ham aynan shundan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Асосий дарсликлар ва ўқув қўлланмалар

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистан, 1992.
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. - Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. Каримов. И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва тараққиёти кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т.: “Шарқ”, 1998.
5. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. - Т.: Ўзбекистон. 2011.
6. Ўзбекистон Республикаси ФА қошидаги Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида Вазирлар Маҳкамасининг қарори // Халқ сўзи. 1998. 28 июль.
7. История новейшего времени стран Европы и Америки (1918-1945). Под ред. Проф. Е.Ф.Язькова, - М.: 1969.
8. История стран Азии и Африки в новейшее время. - М.: Наука, 1976.
9. Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка 1917-1945. Под.ред.проф. В.К.Фураева. – М.: Просвещение, 1989.
10. Новейшая история стран зарубежного Востока. - М.: Восточная литература, 1957.
11. Новейшая история стран зарубежной Азии и Африки. - Л.: Наука, 1983.
12. Нуриддинов З.Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи (1939-1971). - Т.: 1976.
13. Нуриддинов Э. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи (1917-1939). - Т.: 1963.
14. Халқаро муносабатлар тарихи ва дипломатияси. Ҳаммуаллифликда. - Т.: 2009.
15. Язьков Е.Ф. История стран Европы и Америки в новейшее время. 1918-1949 гг. - М.: 2000.

Қўшимча адабиётлар

16. 1939 год. Уроки истории. - М., 1990.
17. Ахмад Мухаммад Турсун. Зукколар китоби. - Т.: Мухаррир, 2010
18. Бекмухамедов Х. Тарих терминлари изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи. 1978.
19. Бережков В.М. Страницы дипломатической истории.- М., 1982.
20. Великая Отечественная война 1941 — 1945. Энциклопедия под ред. М. М. Козлова. — М.: Советская энциклопедия, 1985.
21. Вторая мировая война. Краткая история. - М., 1984.
22. Гадоев К. Сайёрамиз мўъжизалари. – Т.: Ўзбекистон, 2012.
23. Галкин А.А. Германский фашизм. - М., 1989.
24. Гершов З. М. Вудро Вильсон. - М.: 1983
25. Документы и материалы кануна второй мировой войны 1937-1939. - М., 1981.
26. Зайцева. О. Г. Международные межправительственные организации. - М.: 1983.
27. Зорин В.А. Основы дипломатической службы. ИМО. - М.: 1977.
28. Илюхина Р. М. Лига наций. - М.: 1982
29. История внешней политики СССР. 1917-1985. - М., 1986.
30. История международных отношений и внешней политики СССР. 1917-1987. - М., 1986.
31. История Великой Отечественной войны Советского Союза, 1941—1945 (в шести томах). / редколл.: Н. А. Фокин, А. М. Беликов и др. том 2. - М.: Воениздат, 1961.

32. История Великой Отечественной войны Советского Союза, 1941—1945 (в шести томах). / редколл.: П. Н. Пospelов и др. том 6. - М.: Воениздат, 1965.
33. История Второй Мировой войны 1939—1945 (в 12 томах). редколл.: гл. ред. А. А. Гречко. том 9. - М.: Воениздат, 1978.
34. История и сталинизм. - М., 1991.
35. История Италии в 3-х томах. - М.: Наука, 1970-1971.
36. История Китая с древнейших времен до наших дней. - М.: Наука, 1974.
37. История США в 4-х томах. - М.: Наука, 1980-1987.
38. История Франции. Под рук. А.З.Манфреда в 3-х томах. - М.: Наука, 1972-1973.
39. Люди бессмертного подвига. Книга 1. - М.: 1975.
40. Майский И.М. Воспоминания советского дипломата. - М., 1987.
41. Мальков В.Л. Рузвельт Ф. Проблемы внутренней политики и дипломатии. - М.: 1988.
42. Международные отношения на Дальнем Востоке (1870—1949). Изд. 2, испр. и доп. Под ред. проф. Е. Жукова. - М.: 1956.
43. Международные отношения: понятие, структура, историческая логика развития. Под ред. В.Л. Лобер. - М.: Просвещение, 1998.
44. Новая и новейшая история. - М.: Наука. 1993.
45. Новейшая история Китая. 1917-1970 гг. - М.: Наука, 1972.
46. Овсяный И.Д. 1939: последние недели мира. Как была развязка империалистами вторая мировая война. - М., 1981.
47. Партизанское движение в Великой Отечественной войне / Советская военная энциклопедия. / ред. Н. В. Огарков. том 6. - М.: Воениздат, 1978.
48. Практикум по истории СССР. 1926-1945. - М., 1987.
49. Розалиев Ю.Н. Новая и новейшая история стран Азии и Африки. - М.: Наука, 1987.
50. Семиряга М.И. Тюремная империя нацизма и её крах. - М., 1991.
51. Сиполс В.Я. Дипломатическая война накануне второй мировой войны. - М., 1979.
52. Смирнов В.П. Новейшая история Франции. - М.: 1979.
53. Совет жамияти тарихи саҳифалари. – Т., Ўқитувчи. 1991.
54. Соколов Б. В. Оккупация. Правда и мифы. - М.: АСТ-ПРЕСС КНИГА, 2002.
55. Трухановский В.Г. Уистон Черчилль. - М.: 1977.
56. Уткин А.И. Дипломатия Вудро Вильсона. - М.: 1989.
57. Хрестоматия по истории СССР. 1917-1945. - М., 1991.
58. Хрестоматия по новейшей истории. Т-3. - М., 1960.
59. Энциклопедик луғат. 1–2 том. - Т.: 1988.
60. Яковлев Н.Н. Ф.Д.Рузвельт Человек и Политик. - М.: 2005.

Foydalanilgan internet saytlarining nomlari:

- <http://www.grid.rug.nl/ahc/>
- <http://www.Library.Byu.edu/-rdh/eurodocs/>
- <http://www.history.hanover.edu/texts.htm>
- <http://www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html>
- <http://www.english.hss.cmu.edu/history>
- <http://www.ukans.edu/history/vl/>
- <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.html>
- <http://www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/>
- <http://classics.mit.edu>

- [http: // www.washlaw.edu/forint/](http://www.washlaw.edu/forint/)
- [http: // www.yale.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yale.edu/Lawweb/avolon.htm)

